Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# O‘ZBEK TILI

*Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining*
*3-sinfi uchun darslik*

**3**

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

*Yangi nashr*




Toshkent – 2022

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O‘zb)ya72
O‘ 16

**Tuzuvchilar:**

*Dilafruz Xidoyatova*
*Iroda Bakirova*
*Fayoza Raxmatova*
*Namoz Rasulov*

**Taqrizchilar:**

**M. Qurbonova** – O‘zbekiston milliy universiteti jurnalistika fakulteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.
**N. Musulmanova** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti o‘zbek tili kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
**G. Kebaituli –** Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy millatlar universiteti o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.
**M. Matnazarova** – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 69-maktab-ning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

O‘zbek tili 3-sinf [Matn] : darslik / D. A. Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 156 b.

*Original maket va dizayn konsepsiyasi*
*Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.*

*Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.*

ISBN 978-9943-8066-1-0
© Respublika ta’lim markazi, 2022

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# MUNDARIJA

## 1-chorak


| | | | |
|---|---|---|---|
| Salom, yurtim! | Men maktabga tayyorman | Yangi do‘stlarim | 6 |
| | | Xayrli kun! | 8 |
| | | Maktab bozori | 11 |
| | | Men darsga tayyorman | 13 |
| | | Kimda nima bor? | 16 |
| | | Nechanchi bet? | 18 |
| | | O‘yla, izla, top! | 19 |
| | Yo‘l-yo‘lakay | Yo‘l-yo‘lakay | 20 |
| | | Yo‘ldagi sarguzashtlarim | 22 |
| | | Alining yo‘l xaritasi | 24 |
| | | Davron va Azizaning bir kuni | 26 |
| | | Bolalar markazi | 29 |
| | | Chiq-chiq | 31 |
| | | Qani, ketdik! | 33 |


## 2-chorak


| | | | |
|---|---|---|---|
| Salom, yurtim! | Maktab bo‘ylab sayohat | Bizning maktabimiz | 35 |
| | | Oshxonada | 38 |
| | | Ulug‘bek amaki | 40 |
| | | Ajoyib voqea | 42 |
| | | Ruchkaning tarixi | 43 |
| | Fasllar go‘zalligi | Fasllar go‘zalligi | 45 |
| | | Kunlardan bir kun | 47 |
| | | Kanadadan Ismoil | 50 |
| | | Maktabda sirk | 52 |
| | | Mustahkamlash | 55 |


*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3-chorak


| | | | |
|---|---|---|---|
| Bayramlar | O‘zbekiston bayramlari | O‘zbekiston bayramlari | 56 |
| | | Bayramga tayyorgarlik | 59 |
| | | Tug‘ilgan kun | 61 |
| | | Kim bilan? | 62 |
| | Bayram liboslari | Bu nima? | 65 |
| | | Biz tengmiz | 68 |
| | | Qayerga? | 70 |
| | | Garderob | 73 |
| | | Tugmacha | 76 |
| | Milliy taomlar | Yoqimli ishtaha! | 78 |
| | | Qanday? | 80 |
| | | Sanchqi | 82 |
| | | Doshqozon | 85 |
| | Milliy o‘yinlar | Landi-landi | 87 |
| | | Laylak keldi | 89 |
| | | Men kimman? | 91 |
| | | Qani, ketdik! | 94 |


## 4-chorak


| | | | |
|---|---|---|---|
| Yordamchi do‘stlarimiz | Ixtirochi tengdosh-larim | Ixtiro qilish mumkinmi? | 96 |
| | | O‘z qo‘lingda | 97 |
| | | Sinmaydigan ko‘zoynak | 99 |
| | | Lui Brayl kim? | 101 |
| | Ogoh bo‘ling! | Ogoh bo‘ling | 103 |
| | | Ko‘zoynak | 107 |
| | | Qarang, uchdi! | 111 |
| | | Bilib qo‘ygan yaxshi | 113 |
| | | Eng, eng, eng… | 116 |
| | Sovrinli musobaqa | Batut | 119 |
| | | Qani, ketdik! | 123 |


*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# MEN MAKTABGA TAYYORMAN



UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# YANGI DOʻSTLARIM

-dan...
-lik...

## 1. Tinglang va oʻqing.




## 2. Javob bering.

| | |
|---|---|
| Men ... (dan, lik) -man. | Biz ... (dan, lik) -miz. |
| Sen ... (dan, lik) -san. | Siz ... (dan, lik) -siz. |
| U ... (dan, lik) -dir. | Ular ... (dan, lik) -dir. |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

## 3. O‘qing.

**qalamcha**
**yaxshi ko‘rmoq**
**qiziqmoq**
**suv havzasi**
**to‘garak**
**sovg‘a qilmoq**




## 4. O‘ylang va toping.

**A.** Mevalar chizilgan sovg‘a (__)

**B.** Suv havzasi (__)

**D.** Do‘stlarning uchrashuvi (__)

**E.** Azizaning dadasi (__)

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

### 5. O‘ylab toping.

A _ D _ _ G H _ J _ _ M _ _ _

Q _ S _ _ _ X Y _ O‘ _ Sh _ _ _

### Mustaqil topshiriq.

O‘quvchilar o‘zlari uchun "O‘quvchining guvohnomasi"ni yasab kelishadi (nishon ko‘rinishida).




## Xayrli kun!

### 1. Qarang, tinglang va takrorlang.



Xayrli tong!



Xayrli kun!



Xayrli tun!



Assalomu alaykum!



Xayrli tong!
Xayrli kun!
Assalomu alaykum!
Xayrli kech!
Xayrli tun!



Xayrli kech!



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘qing.






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping.

| | to‘g‘ri | noto‘g‘ri |
|---|---|---|
| 1. Davron o‘qituvchisiga salom berdi. | ✓ | ✗ |
| 2. Davron maktab oshxonasida tushlik qildi. | | |
| 3. Davron yuvinmasdan salom berdi. | | |
| 4. Davronni maktabga onasi kuzatdi. | | |
| 5. Maktabda Davron to‘polon qildi. | | |
| 6. Davronning dadasi ishdan keldi. | | |

## Diqqat qiling!

| | |
|---|---|
| Men | Biz |
| Sen | Siz |
| U | Ular |









## 4. O‘ylang, gapiring.

*Namuna.*
Men o‘qiyapman.












**Mustaqil topshiriq.** Salomlashish (assalomu alaykum, xayrli tong, xayrli kun, xayrli kech, xayrli tun) va xayrlashishga oid so‘zlarni 3 ta tilda yozing.

| Assalomu alaykum! | ... | Hello |
|---|---|---|
| ... | ... | ... |



Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE
*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## MAKTAB BOZORI

### 1. Tinglang va takrorlang.




1. Qalam. 2. Daftar. 3. Chizg‘ich. 4. O‘chirg‘ich. 5. Ryukzak. 6. Rasm daftari. 7. Rangli bo‘yoqlar. 8. Kitob. 9. Rangli qog‘oz. 10. Tabiiy fanlar

### 2. Savollarga javob bering.

**DARS JADVALI**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Matematika | | | |
| Musiqa | | | |
| Tasviriy san’at | | | |
| Ingliz tili | | | |
| Tabiiy fanlar | | | |

Bu darslar uchun sizga qanday o‘quv qurollari kerak?

### Diqqat qiling!

**10 + 1 ⇨ 11**

**O‘n + bir = o‘n bir**

12 – o‘n ikki
13 – o‘n uch
14 – o‘n to‘rt
15 – o‘n besh
16 – o‘n olti
17 – o‘n yetti
18 – o‘n sakkiz
19 – o‘n to‘qqiz

**20 + 1 ⇨ 21**

**Yigirma + bir = yigirma bir**

20 – yigirma
30 – o‘ttiz
40 – qirq
50 – ellik
60 – oltmish
70 – yetmish
80 – sakson
90 – to‘qson

100 – yuz



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘qing.




## 4. Savollarga javob bering.

Do‘kondan nechta daftar sotib oldilar?
Aziza bilan Davronga nechta qalam olib berishdi?
Davron  nechta qalamdon tanlab oldi?
Ular nechta rasm daftari olishdi?

**Mustaqil topshiriq.** O‘quv qurollari rasmini chizing va nomini yozing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# MEN DARSGA TAYYORMAN!

## 1. O‘ylang va toping.







?

?

?



?

## 2. O‘ylang va toping. Gapiring.



| ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |
|---|---|---|---|---|---|---|



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



## 3. Savollarga javob bering.

1. Maktab bozori rastasida nimalarni ko‘ryapsiz?
2. Sizga qaysi ryukzak yoqdi? Nima uchun?
3. Maktab bozoriga sizni kim olib bordi? Ularga rahmat aytdingizmi?

**Diqqat qiling!**

| | |
|---|---|
| Bu ... -mi? | Ha. Bu – ... |
| | Yo‘q. Bu ... emas. |

**rasta**
**qaysi?**
**nima uchun?**
**olib bormoq**
**farqini top**

## 4. O‘ylang va toping.



– **Bu *daftar*mi?**

– ***Ha*, bu – *daftar.***



– **Bu *qalamdon*mi?**

– **Yo‘q. Bu *qalamdon* emas.**

## 5. O‘ylang va toping.



– Bu ruchkami?

– Ha, bu – ....



– Bu ryukzakmi?

– Yo‘q. Bu ... emas.



– Bu o‘chirg‘ichmi?

– Ha, bu – ....



– Bu qalammi?

– Yo‘q. Bu ... emas.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 6. O‘ylang va toping.

1



2



### FARQINI TOP



| | 1-rasm | 2-rasm |
|---|---|---|
| **Qizil qalam** | **Bor** | **Yo‘q** |
| **Gulli ryukzak** | | |
| **Ruchka** | | |
| **Chizg‘ich** | | |
| **Daftar** | | |
| **Kitob** | | |

*Namuna.* ***1****-rasmda qizil qalam* ***bor****,* ***2****-rasmda qizil qalam* ***yo‘q.***



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# KIMDA NIMA BOR?

## 1. O‘qing.

**E’lon**

Qadrli 3-sinf o‘quvchilari! “Oltin kuz” rasmlar tanlovida ishtirok eting. Ishlaringizni 25-sentyabrgacha topshiring. 27-sentyabrda g‘oliblar taqdirlanadi.

**e’lon**
**tanlov**
**ishtirok etmoq**
**g‘olib**
**taqdirlamoq**
**oltin kuz**
**nima bor?**




## 2. Savollarga javob bering.

1. Kim**da** qalam, o‘chirg‘ich bor? *Akmal**da** qalam va o‘chirg‘ich bor.*
2. Kim**da** stakan bor?
3. Kim**da** bo‘yoq bor?
4. Bolalar**da** nima yo‘q?
5. Siz**da** nima bor?

**...da ... bor.**
**...da ... yo‘q.**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

**Diqqat qiling!**

**men – menda**
**u – unda**




**Ular+da**
~~Denis, Natasha, Aziza, Akmal~~da sovg'a bor.

## 3. O'ylang va toping. Gapiring.

| | |
|---|---|
| **O'qituvchida qog'oz bor.** | **Menda … … .** |
| **Natashada … … .** | **Unda … … .** |
| **Akmal.. … … .** | **Unda … … .** |
| **Aziza.. … … .** | **Unda bo'yoq bor.** |
| **Denis.. … … .** | **Unda … … .** |
| **Denis, Natasha, Aziza, Akmal.. … … .** | **Ularda … … .** |

**Biz+da** **koptok yo'q.**
**Men, Denis, Natasha, Aziza, Akmal**

## 4. O'ylang va toping. O'qing.

*Namuna. Men o'qituvchiman. Menda qog'oz bor.*
1. Mening ismim Akmal. …da kitob bor.
2. Ular Aziza va Natasha. …da velosiped yo'q.
3. Biz o'quvchilarmiz. …da kitoblar bor.
4. Sen a'lochisan. …da sovg'alar bor.
5. U Denis. …da koptok yo'q.



Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE
*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# NECHANCHI BET?






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylang va toping.

Arseniy Akmalga pichirlayapti (?)

Xatcho‘p turgan kitob (?)

Ustozning maslahati (?)

Asilbek qo‘l ko‘taryapti (?)

## 3. O‘qing. Yasang.

### XATCHO‘P YASASH TEXNOLOGIYASI

**Xatcho‘p yasash uchun kerakli narsalar:**

3 xil rangli qog‘oz
Qalam
Qaychi
Yelim
Chizg‘ich



boshlamoq
ulgurmoq
buklamoq
xatcho‘p














**Mustaqil topshiriq.** Xatcho‘p yasab keling.

### O‘YLA, IZLA, TOP!

## 1. O‘ylang va toping.

1 10’ ’3 2’’’ ’’1  ’’ ’3

2  ’’’’  ~~x~~-d

3 ’’2  ’  ’’’

4  ’’’’  ’’  ’’’

5  ’’’  ’’’  ’’’

6  ’’’’  ’’’’ ’’amma ’’’’’  ’



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylang va toping.

**A, B, I, K, O, T, N** harflaridan yangi so‘zlar hosil qiling.

*Namuna.* Kitob, non, ...

## 3. O‘ylang va toping.

1. Sirti tayoq,
   Ichi bo‘yoq.
2. Kitob, daftar, qalamlar
   Bir yerda to‘p jamlanar.
3. Rangi har xil,
   Nomi bir xil.
4. Tilsiz aql o‘rgatar.






# YO‘L-YO‘LAKAY

## 1. E’tibor bering. O‘qing.






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Bu – bizning uyimiz. Biz hovlida yashaymiz. Bugun dushanba. Soat 07:00. Men bobom bilan maktabga ketyapman. Hozir yo‘ldan o‘tyapmiz. **Bu** – bank. Bankning **orqasida** do‘kon bor. **Chapda** bolalar bog‘chasi va sport majmuasi bor. Do‘kon yonidan **o‘ngga** yuramiz. Chapda oilaviy poliklinika joylashgan. **Yonida** esa dorixona bor. Dorixonaning yonida sartaroshxona bor. Bu sartaroshxonada Denisning akasi ishlaydi. Mana, maktabga yetib keldik.

## 2. Savollarga javob bering.

1. Davron ko‘p qavatli uyda yashaydimi?
2. U soat nechada maktabga ketyapti?
3. U kim bilan maktabga ketyapti?
4. Bank qayerda joylashgan?
5. Bankning orqasida nima bor?
6. Rasmda yana nimalarni ko‘ryapsiz?

**bugun**
**hozir**
**yo‘l**
**orqasida**
**chap**
**o‘ng**
**yonida**
**sartaroshxona**
**dorixona**
**kutubxona**

## 3. O‘ylang va toping.

*Namuna. Bu, uyimiz, bizning.* Bu – bizning uyimiz.

**1.** bank, bor, **Qarshimizda.**
**2.** Bankning, bor, do‘kon, **orqasida.**
**3.** sport majmuasi, bolalar bog‘chasi, va, **Chapda**, bor.
**4.** yonidan, **o‘ngga,** Do‘kon, yuramiz.
**5.** oilaviy poliklinika, **Chapda,** joylashgan.
**6.** esa**, Yonida,** bor, dorixona.
**7.** sartaroshxona, Dorixonaning, yonida, bor.

## 4. Tinglang va o‘qing.

*O‘ngga, chapga, orqaga*
*Va bir qadam oldinga!*
*Endi chapak chalamiz,*
*Chuqur nafas olamiz.*
*O‘tiramiz, turamiz,*
*O‘ngga, chapga yuramiz.*
*Qo‘llarimizni yoyib*
*Chuqur nafas olamiz.*
*O‘tiramiz stulga,*
*Jilmayamiz olamga.*
*Diqqatimizni jamlab,*
*Quloq tutamiz darsga.*




**Mustaqil topshiriq.** Uyingizdan maktabgacha bo‘lgan yo‘l xaritasini chizing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# YOʻLDAGI SARGUZASHTLARIM

## 1. Oʻqing.







**yashamoq**
**uzoq**
**sanamoq**
**chizmoq**
**sarguzasht**








*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. Savollarga javob bering.

1. Amira sinfdagi yangi o‘quvchimi? Javobingizni izohlang.
2. O‘qituvchi o‘quvchilarga qanday vazifa berdi?
3. Amira xaritada nimalarni chizishi kerak?
4. Xaritaning foydalarini ayting.



## 3. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Dorixona qayerda joylashgan? O‘ngda / chapda
2. Bank qayerda joylashgan? O‘ngda / chapda
3. Fotima buvini nechanchi uyga olib bordi? 7 / 9
4. Uy qayerda joylashgan? Orqasida / yonida. *(nimaning?)*

## 4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. …, bilasanmi, bugun maktabga kelayotganimda … .
2. Yuklarimga qarab tur, qizim, … .
3. Dorixonada ancha qolib ketdilar, … .
4. Sarguzashtga boy kun bo‘libdi-da …

**Mustaqil topshiriq.** Yo‘l xaritangizga binolarni ham chizing va nomlarini yozib chiqing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE




## ALINING YOʻL XARITASI

**1. Maktab. 2. Bogʻ. 3. Bolalar bogʻchasi. 4. Maishiy xizmat uyi *(sartaroshxona, poyabzal ta'mirlash ustaxonasi)*. 5. IT park. 6. Bozorcha. 7. Bank. 8.Teatr. 9. Mehmonxona. 10. Stadion. 11. Dorixona. 12. Koʻp qavatli uylar. 13. Mahalla guzari. 14. Pochta.**

### 1. Oʻylang va toping.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Novvoyxona | | Bozorcha | | Sartaroshxona |
| | Bank | | It park | | Koʻp qavatli uy |
| | Teatr | | Kinoteatr | | Mehmonxona |
| | Muzey | | Pochta | | Oilaviy poliklinika |
| | Mahalla guzari | | Maktab | | Bogʻ |

### 2. Tinglang va oʻqing.

Men 9-uyda yashayman. Maktabga oʻrtogʻim Davron bilan boraman. Said 11-uyda yashaydi. Biz maktabga piyoda boramiz. Yoʻlimizda koʻp qavatli uylar, dorixona, bozor va IT park bor. Darsdan keyin sinfdoshlarim bilan uyga qaytaman. Qaytishda biz sayyohlarni koʻrish uchun boshqa yoʻldan yuramiz. Bu yoʻlda bolalar bogʻchasi, maishiy xizmat uyi, bank, teatr, mehmonxona bor. Sayyohlarni bank, teatr va mehmonxona yonida uchratish mumkin. Bu – mening yoʻl xaritam.

***Sizning yoʻl xaritangiz qanday?***



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. Savollarga javob bering.

1. Ali qaysi uyda yashaydi?
2. To‘qqizinchi uyning yonida qanday bino bor?
3. Maktabning orqa tomonida nima bor?
4. Sport maydonchasi qayerda joylashgan?
5. Maishiy xizmat uyida nimalar bor?



**DIQQAT!**

*Menga qara, ey o‘rtoq,*
*Maktab tomon yo‘l olmoq*
*Oson emas, bil, biroq*
*Yo‘lda uchraydi xatar.*
*Yo‘ldan o‘tishda albat*
*“Zebra”dan o‘tgin faqat.*
*Piyodalar yo‘lagin*
*Xatarsiz bilgin har vaqt.*

*Tartibga solar buni*
*Svetofor har kuni.*
*Qizil, sariq va yashil –*
*Ma’nosi bor har birin.*
*Yo‘ldan o‘tishda bordir*
*Yana muhim qoida,*
*Bu – avval qara chapga,*
*So‘ngra qaragin o‘ngga.*

**Mustaqil topshiriq.** Xaritangizni yo‘l belgilari bilan to‘ldiring.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# DAVRON VA AZIZANING BIR KUNI

## 1. Qarang, tinglang va e'tibor bering.

7:00 Uyqudan turish



7:30 Nonushta qilish



8:00 Maktabga borish



12:00 Maktabdan qaytish



12:30 Tushlik qilish



Shaxmat to'garagiga borish 13:30



Uy ishlariga yordam berish 16:00



18:00 Kechki ovqat yeyish



Kitob o'qish, televizor ko'rish 20:00



Yuvinib, tishlarni tozalash 21:00



21:30 Uyquga yotish



**Mening to'garak jadvalim**

| Du | Se | Chor | Pay | Juma | Sha |
|---|---|---|---|---|---|
| roboto-texnika | shaxmat | roboto-texnika | shaxmat | roboto-texnika | shaxmat |

## 2. Savollarga javob bering.

**1.** Davron soat nechada **uyqudan turadi** (uyg'onadi)?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE




**2.** Nima uchun maktabga Davron 8:30 da, Aziza esa 13:00 da boradi?
**3.** Aziza qanday to‘garakka boradi?
**4.** Shaxmat va robototexnika to‘garaklariga kim boradi?
**5.** Kim ertaroq uyg‘onadi?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## Diqqat qiling!

| | | | |
|---|---|---|---|
| Men<br>Sen<br>U | soat | ...da | ...man.<br>...san.<br>...di. |
| Biz<br>Siz<br>Ular | soat | ...da | ...miz.<br>...siz.<br>...dilar. |

## 3. E'tibor bering. O'qing.



Soat 9.
9:00



Soat 9 dan
15 minut o'tdi.
9:15



Soat 9 dan
30 minut o'tdi.
9:30



Soat 9 dan
45 minut o'tdi.
9:45

### TOPISHMOQ

Oynachada ikki til
Erta-kech "chiq-chiq" deydi.
"Yotaverma, tong otdi.
Tur, maktabga bor", – deydi.

kun tartibi
bajarmoq
vazifa
yuvinmoq
minut

## 4. O'ylang va toping.


a


b


d


e


f


g

| | |
|---|---|
| | 8:30 |
| b | 12:15 |
| | 5:45 |
| | 7:00 |
| | 11:30 |
| | 9:15 |

**Mustaqil topshiriq.** Kun tartibingizni yozib keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# BOLALAR MARKAZI

## 1. Diqqat qiling. Tinglang va takrorlang.

| Vaqt | Dushanba | Seshanba | Chorshanba | Payshanba | Juma | Shanba |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 10:00 | Ingliz tili | Tennis | Mental arifmetika | Raqs | Boks | Suzish |
| 12:00 | Mental arifmetika | Rasm | Boks | Taekvondo | Gimnastika | To‘qish |
| 13:30 | Roboto-texnika | [illegible] | Shaxmat | Roboto-texnika | Aviamodel | Raqs |
| 16:00 | Vokal | [illegible] | Taekvondo | Tennis | Biser | [illegible] |



**1.** Tennis. **2.** Boks. **3.** Suzish. **4.** Gimnastika. **5.** Taekvondo. **6.** To‘qish **7.** Shaxmat. **8.** Mental arifmetika. **9.** Robototexnika. **10.** Raqs. **11.** Rasm. **12.** Vokal. **13.** Biser. **14.** Aviamodel. **15.** Ingliz tili.

## 2. Savollarga javob bering.

**1.** Payshanba kuni  to‘garagi soat nechada boshlanadi?

**2.** Seshanba kuni  to‘garagi soat nechada boshlanadi?

**3.** Shanba kuni  to‘garagi soat **12:00** da boshlanadimi?

**4.** Juma kuni **16:00** da qanday to‘garak bor?

**5.** Dushanba kuni  to‘garagi bormi?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE





qatnashmoq
to‘qimoq
istamoq
to‘garak

## 3. O‘qing.

Dars tugadi.
– Davron, futbol o‘ynaymizmi?
– Yo‘q. Mening to‘garagim bor.
– Qayerga borasan?
– Men bolalar markaziga boraman.
– Qayerga? Bolalar markazi nima?
– U yerda turli to‘garaklar bor. Bolalar qiziqishlariga qarab to‘garaklarga qatnashadi. Men shaxmat va robototexnikaga boraman. Aziza tennis va ingliz tiliga boradi. Denis esa suzishga. Said, yur biz bilan.
– Yana qanday to‘garaklar bor?
– Gimnastika, taekvondo, to‘qish, mental arifmetika, raqs va boshqa to‘garaklar bor.
– Men, robototexnika va taekvondoga qiziqaman. Men ham sizlar bilan boraman.



## 4. Savollarga javob bering.

1. Said robototexnika to‘garagini tanladi, siz-chi?
2. Siz qaysi to‘garakka qatnashasiz?
3. Maktabingizda qanday to‘garaklar bo‘lishini istaysiz?





## 5. O‘ylang va toping.

*Namuna. Aziza ingliz tili va tennis to‘garagiga boradi. Shaxmat, robototexnika, suzish, taekvondo to‘garagiga bormaydi.*

| | Shaxmat | Ingliz tili | Robototexnika | Suzish | Taekvondo | Tennis |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Aziza** | ✗ | ✓ | ✗ | ✗ | ✗ | ✓ |
| **Davron** | ✓ | ✗ | ✓ | ✗ | ✗ | ✗ |
| **Denis** | ✗ | ✗ | ✗ | ✓ | ✗ | ✗ |
| **Said** | ✗ | ✗ | ✓ | ✗ | ✓ | ✗ |

**Mustaqil topshiriq.** Shahringizdagi bolalar markazi haqida ma’lumot toping.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



## CHIQ-CHIQ

### 1. O‘qing.

Injiq Ali soatga qaradi. “Soat nima uchun kerak? U meni uyg‘otadi, keyin maktabga shoshaman”,– dedi. Ali soatni to‘xtatdi. Soat buzilib qoldi. Ertalab injiq bola vaqtida turolmadi, maktabdan qoldi, onasidan gap eshitdi. Xatosini tushungan Ali soatni yurgizdi. Ertasiga vaqtli uyg‘ondi. Darsga yetib bordi.

**to‘xtatmoq**
**injiq**
**shoshmoq**
**yetib bormoq**

### BILASIZMI?

***Soat turlari:***
*Qumsoat, quyosh soati, minora soati, mexanik soat, elektron soat, aqlli soat, zanjirli soat.*



### 2. O‘ylang va toping.

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| o | b | a | n | k | u | y | k | o | i | l | a | v | i | y |
| p | o | l | i | k | l | i | n | i | k | a | t | e | a | k |
| i | o | n | o | v | v | o | y | x | o | n | a | b | o | g‘ |
| r | m | e | h | m | o | n | x | o | n | a | l | a | f | r |
| t | e | a | t | r | z | m | a | k | t | a | b | g | l | t |
| p | a | r | k | d | c | n | m | d | o‘ | k | o | n | l | a |
| s | a | r | t | a | r | o | sh | x | o | n | a | r | t | m |
| r | b | o | z | o | r | n | d | o | r | i | x | o | n | a |
| v | b | i | m | l | t | k | u | t | u | b | x | o | n | a |
| q | sh | i | f | o | x | o | n | a | s | m | u | z | e | y |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



**Maktab** → ***maktap***

**kutubxona** → ***kutupxona***



### 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

**Kutubxona, mehmonxona, maishiy xizmat uyi, Ali, Yunusobod, maktab, bir, sartaroshxona, to‘qqizinchi, to‘rtinchi, 11-uy.**

1. Biz ... qavatda yashaymiz.
2. Men bobom bilan ...ga ketyapman.
3. Dorixonaning yonida ... va ... bor.
4. O‘ngga, chapga, orqaga, ...  qadam oldinga.
5. Aziza ... tumanida yashaydi.
6. Aziza buvini ... uyga olib bordi.  Buvi kim bilan qo‘shni?
7. Said ... – uyda yashaydi.
8. Sayyohlarni bank, teatr va ... yonida uchratish mumkin.
9. Poyabzalni ta’mirlatish uchun qayerga borish kerak?
10. Xaritangizni kim bilan chizdingiz?

### 4. O‘ylang va toping. Gapiring.

**Xarita kerakmi? Javobni asoslang.**

| Ha | Yo‘q |
|---|---|
| 1. Maktab o‘quvchisida bo‘lishi shart. | 1. Yo‘limni bilaman. |
| 2. Ustozimning talabi. | 2. |
| 3. | 3. |
| 4. | 4. |
| 5. | 5. |

**Mustaqil topshiriq.** Quyosh soati yasab, ishlatib ko‘ring.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## “Qani, ketdik!”



**1** Men O‘zbekiston...man.

**2** Xayrli ...!



**3**



... ta ..., ... ta ... .

**4**



**5**



... ... .

**6**



Natashada ... ... .

**7**



Bu nima? Bu – ... .

**8**



... ta ... .

**9**



Men ...yapman.

**10**



Bu – ... .

**11**



Bu – ... uy.

**12**



**13**

Dushanba, ...,
chorshanba, ...,
..., shanba, ....

**14**



**15**



nima uchun kerak?

**Mana, yetdik!**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# MAKTAB BOʻYLAB SAYOHAT




*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# BIZNING MAKTABIMIZ

## 1. Tinglang va takrorlang.




1. Kutubxona. 2. Oshxona. 3. Sport zali. 4. O‘qituvchilar xonasi. 5. Tibbiyot xonasi. 6. Faollar zali. 7. Sinf xonasi. 8. Informatika xonasi. 9. Maktab hovlisi. 10. Maktab bog‘i. 11. Sport maydonchasi.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. Savollarga javob bering.

– ... qayerda?
– ...ning ...da.

**Maktab oshxona**si qayerda?
**Faollar zali**ning **o‘ng tomoni**da / **yoni**da.

O‘qituvchilar xonasi | Tibbiyot xonasi | Informatika xonasi | Kutubxona | Sport zali

## 3. O‘qing.

## TASHRIF














*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE




## 4. O‘ylang va toping.

| | | |
|---|---|---|
| 1. Mehmonlar soat 12 da kelishdi. | HA | YO‘Q |
| 2. Bolalar informatika xonasida dasturlashni o‘rganadi. | | |
| 3. O‘qituvchilar xonasida o‘quvchilar ishlashadi. | | |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| | | |
|---|---|---|
| 4. Kutubxona sport zalining yonida. | | |
| 5. Oshxonada kitoblar ko‘p. | | |

**Mustaqil topshiriq.** Maktabingizning 1-qavati maketini chizib, xonalar nomini yozib keling.

# OSHXONADA

## 1. Tinglang. O‘qing.




### KATTA TANAFFUSDA

Qong‘iroq chalindi.

**Aziza:** Saida, yur tushlik qilamiz.

**Saida:** Yur. Qornim rosa och.

**Oshpaz amaki:** Nima yeysizlar? Taomnomada bugun mastava, lag‘mon, salat va sharbat.

**Aziza:** Menga mastava va sharbat bering. Salat ham.

**Saida:** Menga lag‘mon va choy. Non ham bering.

**Aziza:** Saida, sen lag‘monni non bilan yeysanmi?

**Saida:** Ha, men hamma ovqatni non bilan yeyman.

**Aziza:** Men esa nonni faqat nonushtada sariyog‘ bilan yeyman.

**Oshpaz amaki:** Marhamat. Osh bo‘lsin!

**Saida:** Rahmat.

**Aziza:** Saida, ovqatdan ol. Yoqimli ishtaha.

**Saida:** Ovqat juda shirin bo‘libdi. Oshpaz amaki, sizga rahmat.



**nonushta**
**tushlik**
**marhamat**
**osh bo‘lsin**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

**... bilan**

## Diqqat qiling!





Sariyog‘ bilan non yeyiladi.



Aziza Saida bilan oshxonaga bordi.

## 2. O‘ylang va toping.

1. Aziza ... Saida ovqatlandi.
2. Saida lag‘monni non … yedi.
3. Saida va Aziza oshpaz ... suhbatlashdi.
4. Davron maktabga akasi … keladi.
5. Aziza nonni … … ….

## 3. O‘qing. E’tibor bering.

### OLMALI SALAT

**Kerakli mahsulotlar:**

1. Karam.
2. Qizil sabzi.
3. Olma.
4. Mayonez yoki qaymoq – 3 oshqoshiq.



Karam, qizil sabzi va olma bo‘laklanadi, so‘ng mayonez yoki qaymoq bilan aralashtiriladi.

**Mustaqil topshiriq.** Olmali salatni kattalar bilan tayyorlab ko‘ring.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# ULUGʻBEK AMAKI

## 1. Tinglang. Oʻqing

1 Ulugʻbek amaki bizning maktabimiz qorovuli. U kishi bizni ertalab kutib oladilar. Maktabimizda hammani taniydilar. Maktabga begonalarni kirgizmaydilar.



**kutib olmoq**
**begona**
**kiritmoq**
**uchrashmoq**
**qorovul**















*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE




**Diqqat qiling!**

**birinchi qavat, ikkinchi qavat, 5-“B” sinf, ikkinchi qavatdagi 28-xona**

**Nechanchi...?**

**-nchi**
**Ikki + -nchi**

**-inchi; -nchi ⇨ –**
**5- ⇨ beshinchi**

**-inchi**
**Bir + -inchi**

## 2. Savollarga javob bering.

**1.** Kutubxona, oshxona, sport zali nechanchi qavatda joylashgan?
**2.** Ikkinchi qavatda qanday xona bor?
**3.** Nechanchi sinf o‘quvchilari ingliz tilini yaxshi biladi?
**4.** 5-“B” sinf nechanchi xonada o‘tiradi?

## 3. O‘ylang va toping.

46…maktab. Informatika xonasi ikki… qavatda joylashgan. Maktabning yigirma bir… xonasi – tibbiyot xonasi. Biz 3… “D” sinf o‘quvchilarimiz. Bugun nechanchi sana? Bugun …noyabr.

**Tug‘ilgan kuningiz sanasini ayting.**

**Mustaqil topshiriq.** Uydagilarga “Men qaysi sinfda o‘qiyman?” savolini berib, javob oling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# AJOYIB VOQEA

## 1. Tinglang. O‘qing.

Maktabimizda Ulug‘bek amaki bilan bog‘liq ko‘p qiziqarli voqealar bo‘ladi. Bir kuni o‘zbek tili o‘qituvchimiz darsga kelmadi. Bundan hayron bo‘ldik va direktor o‘rinbosari Go‘zal opaga aytdik. Go‘zal opa ustozimizga qo‘ng‘iroq qildilar. Ustozimiz: “Ulug‘bek amaki meni tanimadilar, kirishga ruxsat bermayaptilar”, – dedilar. Go‘zal opa kulib yubordilar.

Bir kuni dadam “Otalar majlisi”ga kelganlarida Ulug‘bek amaki: “Farzandingiz 3-sinfning qaysi birida o‘qiydi?” – deb so‘raganlar. Dadam bilmaganlar. Shunda chaqqon Ulug‘bek amaki majlis bo‘layotgan sinf xonasiga dadamni kuzatib qo‘yganlar. Dadam majlis oxirida bu boshqa sinf majlisi ekanini bilganlar.



hayron bo‘lmoq
majlis
ruxsat bermoq
oxiri
o‘rinbosar



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylab ko‘ring.

| | | |
|---|---|---|
| 1. | O‘zbek tili o‘qituvchisi darsga keldi. | |
| 2. | Go‘zal opa o‘zbek tili o‘qituvchisiga qo‘ng‘iroq qildi. | |
| 3. | Ulug‘bek amaki ustozni tanimadi va maktabga kirishga ruxsat bermadi. | |
| 4. | Go‘zal opa yig‘lab yubordi. | |
| 5. | Onam “Otalar majlisi”ga kelgan. | |
| 6. | Ulug‘bek amaki majlis bo‘layotgan sinf xonasiga dadamni kuzatib qo‘ygan. | |
| 7. | Dadam mening sinfim majlisida qatnashmadi. | |

## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Aziza Ulug‘bek amakiga ryukzakni berdi.
– Ulug‘bek amaki, kimdir ryukzagini qoldirib ketibdi.
Ryukzakni ochishsa, ichida … .

**daftar, rangli qalam, rasm daftari, qalamdon, kitoblar, Zebo, 4-“A” sinf.**

**Mustaqil topshiriq.** Ryukzagingiz rasmini chizing va ichidagi o‘quv qurollari nomini yozing.

qamish
qush pati
siyoh

## RUCHKANING TARIXI

## 1. O‘qing.

### Bu qiziq!

Birinchi ruchkalar qadimda Misrda paydo bo‘lgan. Ular qamishdan yasalgan. Keyin qush patidan yasalgan ruchkalar paydo bo‘lgan. Siyohga botirib yoziladigan ruchkalar o‘rnini sharikli ruchka egalladi. Hozir hatto yozuvni o‘chiradigan ruchkalar ham bor.

## 2. Savollarga javob bering.

1. Birinchi ruchka qayerda paydo bo‘lgan?
2. Qamishdan yasalgan ruchkadan foydalanish osonmi?
3. Siz qanday ruchkada yozasiz?
4. Uyingizda qanday turdagi ruchkalar bor?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping.

kutubxona

oshxona

o‘qituvchilar xonasi

tibbiyot xonasi

faollar zali

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| s | f | e | a | k | i | t | a | m | r | o | f | n | i | f |
| o | sh | x | o | n | a | k | l | g‘ | o | b | i | u | v | a |
| d | f | h | r | a | l | i | ch | v | u | t | i | q | o‘ | o |
| i | l | a | z | t | r | o | p | s | s | j | k | v | s | l |
| i | s | a | n | o | x | t | o | y | i | b | b | i | t | l |
| h | k | p | z | x | s | v | b | n | a | m | k | l | p | a |
| o | t | u | d | s | f | j | k | n | e | s | i | n | f | r |
| v | e | e | t | h | j | l | o | x | o | n | a | s | i | z |
| l | w | d | r | u | g | x | i | s | a | n | o | x | r | a |
| i | d | f | g | h | b | j | k | l | o | f | d | a | q | l |
| u | t | o‘ | g | a | r | a | k | x | o | n | a | s | i | i |

sinf xonasi

informatika xonasi

hovli

bog‘

sport zali

~~to‘garak xonasi~~

## 4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Ukamga  bilan  berdim.

2.  -ni salat ... yedik.

3.   ...  o‘ynadi.

4.   ... rasmga tushdi.

5. Davron telefonda  ... gaplashdi.

**Mustaqil topshiriq.** Ruchkaning yozishdan tashqari foydali 5 ta vazifasini yozing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# FASLLAR GO'ZALLIGI






## 1. O'qing. Tinglang.

**qolib ketmoq**
**sarg'aytirmoq**
**sovitmoq**
**muzlatmoq**
**navbat**

**Kuz.** Keldingmi, Qish?
**Qish.** Ha, keldim.

**Kuz.** Ancha qolib ketding. Men salqin kunlarda daraxtlar barglarini sarg'aytirdim. Barcha poliz ekinlarini pishirdim. Kunlarni sovitdim. Ularni shamol va yomg'irlar bilan o'tkazdim. Endi sening navbating.

**Qish.** Ha, bilaman. Juda jahlim chiqyapti. Hamma yoqni muzlataman. Qor yog'dirib, bo'ron ko'taraman.

**Bahor.** Nega jahling chiqyapti? Mening navbatim kelsa, daraxtlarni gullataman. Iliq shabada estirib, yerlarni maysalar bilan bezayman. Kamalak ranglari bilan bolalarni quvontiraman.

**Yoz.** To'g'ri aytasan, Bahor. Lekin men hali ancha kutaman. Mening navbatimda quyosh issiq havo olib keladi. Bolalar anhorlarda cho'milishadi. Mevalar pishadi.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



## 2. O'ylang va toping.

| | | To'g'ri | Noto'g'ri |
|---|---|---|---|
| 1. | Daraxtlar kuzda sarg'ayadi. | | |
| 2. | Yozda *salqin* bo'ladi. | | |
| 3. | Qishda hamma yoq *sovuq* bo'ladi. | | |
| 4. | Yozda *qor* yog'adi. | | |
| 5. | Bahorda *issiq* bo'ladi. | | |
| 6. | *Iliq* havo bahorda bo'ladi. | | |
| 7. | Kamalak qishda chiqadi. | | |
| 8. | Quyosh doim qizdiradi. | | |

## 3. O'ylang va toping. Gapiring.

**BAHOR**

**YOZ**

**KUZ**

**QISH**

**a)** yomg'ir

**f)** shamol

**e)** kamalak

**i)** chaqmoq

**g)** do'l

**d)** qor

**b)** bo'ron

**j)** iliq (+20 °C)

**k)** quyosh

**h)** issiq (+35 °C)

**l)** sovuq (-3 °C)

**m)** salqin (+5 °C)

## 4. E'tibor bering va yasang.

Termometr yasash uchun kerak bo'ladi:

1. **Ko'k ip.**
2. **Qaychi.**
3. **Chizg'ich.**
4. **Qalam.**
5. **Qizil ip.**
6. **Oq qog'oz.**






**Mustaqil topshiriq.** Termometr yasab keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# KUNLARDAN BIR KUN

## 1. O‘qing va tinglang.




**mustahkam**
**unutmoq**

## 2. Savollarga javob bering.

1. Davron maktabga qanday meva olib kelgan?
2. Siz qaysi mevalarni yaxshi ko‘rasiz?
3. Nega mevalarni yuvib yeyish kerak?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. Tinglang va takrorlang.


anor


nok


uzum


behi


gilos


banan


ananas


limon


kivi


apelsin

## 4. Tinglang. O‘ylang va toping.




**1.** Sabzi. **2.** Sholg‘om. **3.** Kartoshka. **4.** Piyoz. **5.** Qovoq. **6.** Pomidor. **7.** Sarimsoqpiyoz. **8.** Bodring. **9.** Baqlajon. **10.** Qalampir. **11.** Bulg‘or qalampiri. **12.** Lavlagi. **13.** Jo‘xori.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

… -lar

## 5. O‘ylang va toping. Gapiring.

sholg‘om  sholg‘omlar 

sabzi  sabzilar 

piyoz  piyozlar 

qalampir  qalampirlar 

lavlagi  lavlagilar 

baqlajon  baqlajonlar 

bodring  bodringlar 

## 6. O‘ylang va toping.

Sabzavot va mevalarni kimlar yetishtiradi?

**sotuvchi** **dehqon** **bog‘bon** **shifokor** **haydovchi**

**Mustaqil topshiriq.** Meva va sabzavotlardan tayyorlanadigan salat yoki taom nomlarini yozing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## Kanadadan Ismoil

### 1. O‘qing.








– Assalomu alaykum, ustoz **va** o‘quvchilar. Ismim Ismoil. Toshkentda tug‘ilganman. Yoshim 10 da. Men **va** ukam Kanadadagi maktabda o‘qiymiz.

Kanada okean ortida joylashgan. Hozir bu yerda tun. Bizda soat 21:00. O‘zbekistonda soat necha bo‘ldi?

– Bizda hozir 9:00.

– Tushunarli. Kanadada hozir havo juda sovuq. Bu yerda qish uzoq davom etadi. Bugun qalin qor yog‘di. Kuchli shamol **va** bo‘ron bo‘ldi. Havo harorati -26 darajagacha pasayib ketdi. Shamollab qolish hech gap emas.

– Bizda ham qish, lekin havo biroz sovuq. Hali qor yog‘madi.

– Ismoil, senga rahmat. Sen bilan yana suhbatlasha olamizmi?

– Ha, albatta.

– Unda ko‘rishguncha.

– Xayr.




### 2. O‘ylang va toping.

1. Ismoil … ukasi Kanadada … .
2. Ismoil … tug‘ilgan.
3. Kanadada soat … . O‘zbekistonda esa soat … .
4. Kanadada qalin qor yog‘di. Shamol … bo‘ron bo‘ldi.
5. Kanadada havo … daraja. O‘zbekistonda … daraja.
6. Biz yana sen bilan … …?






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. E'tibor bering.




## 4. Tinglang va gapiring.

1. Yozda kun uzun bo'ladi.
2. Qishda kun qisqa bo'ladi.
3. Yozda tun …. bo'ladi.
4. Qishda …  uzun bo'ladi.

## 5. O'ylang va toping.

*Uzun va qisqa, yosh va qari, ozg'in va semiz, qalin va yupqa, eski va yangi, katta va kichik.* Ushbu so'zlar yordamida rasmlarni izohlang.



## 6. Gaplarni to'ldiring.

uzun, ozg'in, yosh, semiz, katta, qalin, eski, qari, yupqa, kichik, kalta

Kitob _________ va ____________.
Poyabzal _________ va ___________.
Multiqahramon ___ va ___________.
Azizaning sochi ____, Guliniki esa ________.

**Mustaqil topshiriq.** Mazkur sifatlardan foydalanib gaplar tuzing va rasm chizing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# MAKTABDA SIRK

## 1. Tinglang va o‘qing.

– Bobojon, bugun maktabimizga sirk keldi. Ajoyib tomoshalar ko‘rsatishdi.

– Qanday tomoshalar ko‘rsatishdi? Ularda jonivorlar ham bor ekanmi?

– Ha, albatta. Ular ilon, kuchukcha, maymun, kaptar va olmaxon olib kelishdi.

– Ilon katta ekanmi?

– Ilon juda katta ekan **(A)**. Ilon o‘ynatuvchi uni bo‘yniga osib oldi **(B)**. Masxaraboz esa maymunni olib chiqdi. Maymun bolalarga salom berdi va Ilhomning shapkasini tortib oldi. Ko‘zboylog‘ichning shlyapasidan kaptar uchib chiqdi **(D)**. Dorda dorboz bola o‘ynadi **(E)**. U og‘ir toshlarni tishi bilan ko‘tardi.

– Tomoshalar senga yoqdimi?

– Yoqdi. Ularga hammamiz qarsak chaldik **(F)**.






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Ko‘zboylog‘ichning shlyapasidan kaptar uchib chiqdi. — D
2. Ilon juda katta ekan.
3. Ilon o‘ynatuvchi uni bo‘yniga osib oldi.
4. Dorda dorboz bola o‘ynadi.
5. Ularga hammamiz qarsak chaldik.

## Diqqat qiling!









## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

ko‘rding | sakradilar

berdingiz | ko‘tardik

oldi | o‘ynadim

turdilar | chaldik

yurdingiz | keldi

Men, Biz, Ular, Sen, Siz, U



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

### 4. O‘qing. O‘ylang va toping.

– Bolalar qarsak chalishdimi?
– Ha, bolalar qarsak chalishdi.
– Masxaraboz ilonni o‘ynatdimi?
– Yo‘q, masxaraboz …ni o‘ynatdi.
– Sen tomosha qildingmi?
– Ha, men … … .
– Aziza maktabdan onasi bilan qaytdimi?
– ________________________________

## TOPISHMOQLAR



Yer tagida sovuq qamchi.

Hayvonlarning eng kattasi,
Bordir dumi, xartumi.
Qorni katta choynakdek,
Suv purkar favvoradek.





O‘xshar o‘zi eshakka,
Ikki qulog‘i tikka.
Lekin yo‘l-yo‘l to‘ni bor,
Xo‘p antiqa nomi bor.

Yo‘l-yo‘l sariq to‘ni bor,
Odam qo‘rqar turqi bor.



Qishda uxlayman beg‘am,
Uyg‘onsam bo‘lar ko‘klam.
Yemishim mening asal,
Bo‘lmayman sira kasal.



*Topishmoqlar to‘plamidan olindi.*

**Mustaqil topshiriq.** 2 ta fe’lni o‘tgan zamonda tuslang va yozing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## “Qani, ketdik!”



**1**




Yangi ... .

**2**



...da kun ... bo‘ladi.

**3**



13:00 ... ... .

**4**



Yoqimli ...!

**5**



Qayerda? Kompyuter ... ... .

**6**



Ulug‘bek amaki kim? ... ... ... .

**7**

Nechanchi sinfda o‘qiysiz?

**8**



Birinchi ... qanday bo‘lgan?

**9**



... qachon paydo bo‘ladi?

**10**



Likopda ... , ..., ... bor.

**11**



Bolalar qayerda?

**12**

Men  da  ...man.

**13**



Bu – ... .

**14**



...da ... qisqa bo‘ladi.

**15**



...da nimalarni ko‘rgansiz?

## Marra!





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# O‘ZBEKISTON BAYRAMLARI












*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 1. Tinglang. O‘qing.




1. **1-yanvar** – Yangi yil.
2. **8-mart** – Xalqaro xotin-qizlar kuni.
3. **21-mart** – Navro‘z bayrami.
4. **9-may** – Xotira va qadrlash kuni.
5. **1-sentyabr** – Mustaqillik kuni.
6. **1-oktyabr** – O‘qituvchi va murabbiylar kuni.
7. **8-dekabr** – O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi kuni.
8. Ramazon hayiti.
9. Qurbon hayiti.

## 2. O‘ylang va toping.

xotira
qadrlamoq
nishonlamoq




















*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O'ylang va toping. O'qing.

JDHFMUSTAQILLIKDGSHSKUNIYETDGO'QITUVCHIBDFVAMK
DFMURABBIYLARHDHKUNIQERPKONSTITUTSIYANVBGKUNISD
HRYANGISDGYILZXSRBAYRAMIHGATXALQAROK
TDSXOTINQIZLARQERVBAYRAMIPLKNAVRO'ZTYRBAYRAMI
PLKHXOTIRAFDESVAGTYUQADRLASHZSHDKUNIRAXO
RAMAZONYQMXHAYITIPLRTQURBONXBTFNHAYITIIYND

## 4. O'ylang va toping. Gapiring.


Artyom

Alisher


Bobo







O'qituvchi


Ona

Siz






*Namuna.* Artyom yangi yil bayramini yoqtiradi.

**Mustaqil topshiriq.** Siz oilangizda yana qanday bayramlarni nishonlaysiz? Shu mavzuda gapirish uchun tayyorlanib keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# BAYRAMGA TAYYORGARLIK

## 1. Tinglang va o‘qing.




**Siz kimga sovg‘a tayyorlayapsiz?**

## 2. Savollarga javob bering.

1. Suratda nimalar bor?
2. Suratda kimlar bor?
3. Artyom va Solih kimni tabriklamoqchi?

**sovg‘a tayyorlamoq**
**tabriklamoq**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.




O‘quvchilar Vatan himoyachilari kuniga sovg‘a tayyorlamoqchi.

## 4. O‘ylang va toping.

14-yanvar qanday kun?
a) Mustaqillik kuni
b) Konstitutsiya kuni
d) Vatan himoyachilari kuni
e) Xotira va qadrlash kuni

8-dekabr qanday kun?
a) Navro‘z bayrami
b) Xotira va qadrlash kuni
d) Vatan himoyachilari kuni
e) Konstitutsiya kuni

## 5. O‘ylang va toping.



**Mustaqil topshiriq.** Siz kimga, qanday sovg‘a tayyorlayapsiz? Ushbu savolga javob yozib keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# TUGʻILGAN KUN

## 1. Oʻqing.




## 2. Savollarga javob bering.

1. Bolalar qayerda suhbatlashyapti?
2. Ertaga kimning uyida bayram?
3. Kimning tugʻilgan kuni 22-yanvarda?
4. Nega Aziza  Erlanga tanbeh berdi?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping.

| | | |
|---|---|---|
| Artyom | 15-sentyabr | koptok |
| Aziza | 20-oktyabr | aqlli soat |
| Erlan | 22-yanvar | robot |
| Solih | 17-iyun | ertak kitobi |
| Asel | 8-dekabr | pushti sumka |
| Ustoz | 29-mart | noutbuk |
| Ulug‘bek amaki | 5-yanvar | mashina |

*Namuna. Artyomning tug‘ilgan kuni o‘n beshinchi sentyabrda. U tug‘ilgan kuniga koptok olishni xohlayapti.*

## 4. Savollarga javob bering.

1. Sizning tug‘ilgan kuningiz qachon?
2. Siz tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni istaysiz?

*Namuna.* Mening tug‘ilgan kunim …
**Men tug‘ilgan kunimda … olishni xohlayman.**

## Mustaqil topshiriq.

1. Sizning tug‘ilgan kuningiz qachon?
2. Siz tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni istaysiz?
3. Oila a’zolaringizdan shu savollarga javob oling va yozib keling.

# KIM BILAN?

## 1. Tinglang. O‘qing.

**… bilan**

Bayramlar yaqin insonlar davrasida nishonlanadi.

Yangi yilni oilada ota-ona, aka-uka va opa-singillar ***bilan*** nishonlaydilar. Navro‘z bayramini esa do‘stlar, qarindoshlar ***bilan*** o‘tkazadilar. Hayit bayramlari ham oila a’zolari ***bilan*** nishonlanadi. Xotira va qadrlash kuni ko‘pincha bobo-buvilar ***bilan*** nishonlanadi. Bolalar tug‘ilgan kunlarini o‘rtoqlari ***bilan*** nishonlashni yaxshi ko‘radilar.



**qarindosh**
**yaxshi ko‘rmoq**
**ko‘pincha**

*nishonlamoq = o‘tkazmoq*
*do‘st = o‘rtoq*



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylang va toping.

| Navro‘z | Hayit bayrami | Yangi yil | Tug‘ilgan kun |
|---|---|---|---|
| do‘stlar, qarindoshlar | oila a’zolari | ota-ona, aka-uka, opa-singillar | o‘rtoqlar |

Davron



Asel



Artyom



?

------------------ ------------------- ------------------ ---------------------

*Namuna.* *Davron Navro‘z bayramini do‘stlari va qarindoshlari bilan nishonlaydi.*

## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Bizning sirk dars qachon? tayyorlanyapti.

Bugun sizning bayramga keldi. sinf

Ularning -imiz -iga kun tug‘ilgan

Sening maktab -ing bor. -ingiz

*Namuna.* *Bizning sinf**imiz** bayramga tayyorlanyapti.*

## 4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. ota-onasi, O‘quvchilar, boryapti, bilan, maktabga.
2. bilan, Murabbo, yeyiladi, non.
3. do‘stlar, kun, Tug‘ilgan, bilan, o‘tkaziladi.
4. ichiladi, Dori, bilan, suv.
5. futbol, Denis, o‘ynayapti, Erlan, bilan.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## BAYRAM LIBOSLARI





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## BU NIMA?

### 1. Tinglang. O‘qing.

**do‘ppi**
**yaktak**
**atlas ko‘ylak**



1. Qalpoq. 2. Kepka. 3. Ro‘mol. 4. Atlas ko‘ylak. 5. Shim. 6. Yubka. 7. Ko‘ylak. 8. Futbolka. 9. Shortik. 10. Palto. 11. Kurtka. 12. Nimcha. 13. Tufli. 14. Etik. 15. Krossovka. 16. Do‘ppi. 17. Yaktak.

**Bu nima?**

*Namuna.* **Bu – jigarrang palto.**

**Diqqat qiling!**







### 2. O‘ylang va toping.

Issiqdan himoya qiladi.
Sovuqdan himoya qiladi.
Chiroyli ko‘rinishga xizmat qiladi.

**himoya qilmoq**
**xizmat qilmoq**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O'ylang va toping.



*Namuna.* *Ko'k shim. Shimning rangi ko'k.*



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. O'ylang va toping. Gapiring.



*Namuna. Davron oq ko'ylak va siyohrang shimda.*

**Mustaqil topshiriq.** Kiyimlar mavzusida maqol va topishmoq topib, yozing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 1. O‘ylang va toping. Gapiring.



atlas ko‘ylak



xanbo‘k



do‘ppi



taqiya



shabanda



beshpent



sari



kurash

*Namuna.* Koreys milliy libosi – **xanbo‘k.**

milliy
millat
mumkin
mos
mato
tarix

## 2. O‘ylang va toping. O‘qing.

**bor, kiyadilar, atlas, tikiladi**

Har bir millatning milliy liboslari *bor.* Ular milliy liboslarini bayramlarda ________. Bolalarning milliy liboslarini ko‘rib, millatini aniqlab olish mumkin. Milliy liboslar har bir millat yashaydigan hududga mos bo‘ladi. O‘zbek milliy liboslaridan biri – _____ ko‘ylak. U ipakdan___________.

## 3. Tinglang.

### XONATLAS TARIXI

**Mustaqil topshiriq.** O‘z milliy libosingiz rasmini chizing.



Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## QAYERGA?

### 1. O‘ylang va toping.

**Qayerga?** ✓ ✗

| Kiyimlar / Manzil | Maktab  | Tog‘  | Bog‘  | Teatr  | Suv havzasi  |
|---|---|---|---|---|---|
|  | ✗ | ✗ | ✓ | ✓ | ✗ |
|  | | | | | |
|  | | | | | |
|  | | | | | |
|  | | | | | |

*Namuna.* *Robiya qayerga ko‘ylak, tufli kiyib bordi? Robiya teatrga ko‘ylak, tufli kiyib bordi.*



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

**Diqqat qiling!**

+ -ga = -ka




+ -ga = -qa

## 2. O‘ylang va toping. O‘qing.



tog‘

+ -ga= *tog‘ga*



maktab

+ -ga= *maktabga*



bog‘

+ -ga= *bog‘ga*



sirk

+ -ga = *sirk*ka



qishloq

+ -ga = *qishloq*qa



teatr ?



?



?




?

***Qayerga?***



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘qing. O‘ylang.

Sitoraning bobosi va buvisi Buxoroda yashaydi. Sitora yozda Buxoroga boradi. Bolalar, Sitoraga yordam kerak.




## 4. Savollarga javob bering.

1. Sitora yozda qayerga boradi?
2. Sitora sumkasiga palto va etik soldimi?
3. Nima uchun?
4. Sitora ota-onasi bilan qayerga ketyapti?

**Mustaqil topshiriq.** Sizning oila a’zolaringiz qayerga boradi?

*Namuna.* *Akam … boradi.*

***Singlim, ukam***



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# GARDEROB

## 1. O‘qing. Tinglang.

Bugun yakshanba. Kunlar isiy boshlagan. Oyim bilan garderobimizdagi kiyimlarni saraladik. Palto, kurtka, jemper, shapka, bo‘yinbog‘larimizni qutilarga soldik. Ukamning kurtkasini alohida olib qo‘ydik. Chunki uning kurtkasi kichik bo‘lib qoldi.

Boshqa qutilarni ochib, bahorgi kiyimlarimizni oldik.



a) Chunki kichik bo‘lib qoldi.
b) Ukasining kurtkasi yirtiq edi.
d) Ha, biz ham kiyimlarni saralaymiz.
e) Bahorda kurtka, shim, yubka, ko‘ylak, tufli, krossovka kiyamiz.
f) Bilmayman.
g) Bahorda o‘zim istagan kiyimni kiyaman.
h) Bahorda yangi kiyim kiyaman.

saralamoq
solmoq
alohida
chunki
yirtiq

## 2. Savollarga javob bering.

1. Nima uchun kurtkani alohida olib qo‘ydilar?
2. Sizning ham oilangizda shunaqa kun bo‘ladimi?
3. Bahorda qanday kiyimlar kiyasiz?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping.



| | | Ha | Yo‘q |
|---|---|---|---|
| 1. | Bugun yakshanba. | | |
| 2. | Opam bilan garderobimizdagi kiyimlarni saraladik. | | |
| 3. | Kurtka, jemper, shapka, bo‘yinbog‘larimizni yuvdik. | | |
| 4. | Boshqa qutilarni ochib, bahorgi kiyimlarimizni oldik. | | |
| 5. | Ukamning kurtkasini alohida olib qo‘ydik. | | |
| 6. | Boshqa qutilarni ochib, qishki kiyimlarimizni oldik. | | |

## 4. Tinglang. O‘qing.



1. Qaychi. 2. Igna. 3. Ip. 4. Taroq. 5. Tugma. 6. Supurgi. 7. Xokandoz. 8. Qisqich. 9. Tish cho‘tkasi. 10. Cho‘tka. 11. Ko‘zgu. 12. Chelak.

## 5. O‘ylang. Toping.

1. Kurtkani tikish uchun igna, …, … kerak.
2. Uy tozalash uchun supurgi, …, … kerak.
3. Sartaroshga … kerak.
4. Tikuvchiga … kerak.

**supurgi**
**xokandoz**
**qisqich**
**qaychi**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## Mustaqil topshiriq.












*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# TUGMACHA

## 1. Tinglang. O‘qing.






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. Savollarga javob bering.

1. Kim darsga kech qoldi?
2. Doston kimni chaqirdi?
3. Daler bilan Doston qayerga bordi?

Besh og‘ayni, ayvoni bir, xonasi boshqa. (?)

## 3. O‘qing.

*Namuna.* Natasha qayerga boradi? Natasha bog‘ga boradi.



1. Erlan qayerga boradi?



2. Aziza qayerga boradi?



3. Denis qayerga boradi?



4. O‘quvchilar qayerga boradi?

5. Asel qayerga boradi?





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## YOQIMLI ISHTAHA!

### 1. Tinglang. O‘ylang va toping.



1. Palov (osh). 2. Sho‘rva. 3. Somsa. 4. Manti. 5. Gamburger. 6. Pitsa. 7. Muzqaymoq. 8. Tort. 9. Choy. 10. Sut. 11. Sharbat.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘qing. Tinglang.

1. – Assalomu alaykum! Iltimos, menga palov, salat va choy bering.
– Marhamat. Osh bo‘lsin!
2. – Men kecha sho‘rva ichdim. Bugun mantini tanladim. Manti juda mazali. Sardor, senga manti yoqmaydimi?
– Men esa kecha manti olgandim. Bugun mastava, qatiq va non oldim.
– Yoqimli ishtaha!
– Senga ham yoqimli ishtaha, Dmitriy.
3. – Aynura, ovqat olmadingmi?
– Yo‘q, men qovoq somsani yaxshi ko‘raman. Sen ham yeysanmi?
– Rahmat. Bugun Said amaki mening sevimli ovqatimni pishiribdilar. Men pyure bilan kotletni yaxshi ko‘raman.

## 3. Savollarga javob bering.

1. Erlan palov bilan nima oldi?
2. Kim kecha sho‘rva ichdi?
3. Dmitriy qanday ovqat yedi?
4. Kim qovoq somsani yaxshi ko‘radi?
5. Maktabda Said amaki kim bo‘lib ishlaydi?

**pishirmoq**
**sevimli**
**osh bo‘lsin!**

## 4. O‘ylang va toping. Gapiring.

**Sarvar** 14:00



**Kamola** 13:00



*Namuna.* 1. **Sarvar soat 14:00 da *tushlik* qildi.**
U tushlikka *…, … yedi.* Oshni … bilan yedi. Dasturxonda … ham bor edi.
2. Kamola soat …da … qildi. U … yedi. Ovqatni … bilan yedi. Dasturxonda … ham bor edi.
3. Siz kecha tushlikka nima yedingiz?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 5. O‘qing. Tinglang.

### Bananli yogurt



**Kerakli mahsulotlar:**
1 dona banan, yogurt.
**Tayyorlash usuli:**
Maydalangan banan bilan yogurtni aralashtiring.

**Mustaqil topshiriq.** Mevali yogurt tayyorlab ko‘ring.

## QANDAY?

## 1. O‘qing. Tinglang.




1 Shirin


2 Sho‘r


3 Achchiq


4 Nordon


5 Chuchuk

## 2. O‘ylang va toping. Savollarga javob bering.

1. Qanday  ? Shirin tort.

2. Qanday  ? … .

3. Qanday  ? … .



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

4. Qanday  ? … .

5. Qanday suv? … .

6. Qanday  ? … .

taxir
ta’m
tilning uchi
tilning cheti
tilning o‘zagi

## 3. O‘qing.

Mayda, yoqutdek qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil,
Qalin, taxir, po‘sti bor,
Hamma yerda do‘sti bor.
Sen ayt-chi, qizim, Gulnor.
– Bumi, dadajon? Anor.

***G‘afur G‘ulom***



## 4. Tinglang. O‘qing.

Bilasizmi, tilimiz ta’m bilish vazifasini ham bajaradi. Shirin ta’mni tilning uchi sezadi. Tilning chetlari nordon va sho‘r ta’mni sezadi. Achchiq ta’mni esa tilning o‘zagi sezadi.




## Mustaqil topshiriq.

| | | | |
|---|---|---|---|
| shirin | achchiq | nordon | sho‘r |
| kivi | pomidor | choy | shakar |

*Namuna.* Qanday kivi? Nordon kivi.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE




## 1. O‘qing. Tinglang.

1. Choynak. 2. Piyola. 3. Sanchqi. 4. Qoshiq. 5. Likop. 6. Kosa. 7. Lagan. 8. Qozon. 9. Tova. 10. Kapgir. 11. Cho‘mich. 12. Idish-tovoq. 13. Sochiq.

## 2. O‘qing. E’tibor bering.

### SANCHQI GAPIRGANDA



Men yeyapman



Tanaffus



Ikkinchi ovqatni kutyapman



Yeyishni tugatdim



Menga yoqmadi



Juda mazali



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang. Toping. Gapiring.

*yopyapti, yuvyapti, ishlatyapti, kesyapti, taxlayapti, artyapti*



1. Aziza sanchqini ishlatyapti.



2. Iroda sochiqlarni … .



3. Asel …ni … .



4. Danil …ni … .



5. Davron … … .



6. Oshpaz … … .






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. O‘ylang. Toping.



| Oshxona jihozlari | O‘quv qurollari | Kiyimlar | O‘yinchoqlar |
|---|---|---|---|
| Choynak | Rasm daftari | Do‘ppi | Lego |
| | | | |
| | | | |

**Mustaqil topshiriq.** Dasturxonga salfetkani chiroyli qilib taxlang. Rasmga oling yoki darsga olib keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# DOSHQOZON

## 1. Tinglang. O‘qing.




**1.** Non. **2.** Un. **3.** Sut. **4.** Suv. **5.** Tuxum. **6.** Qatiq. **7.** Guruch. **8.** Yog‘. **9.** Shakar. **10.** Go‘sht. **11.** Makaron. **12.** Tuz.

Taomiman Navro‘zning,
Umidiman rizq-ro‘zning.
Doshqozonda pishaman,
Goh ko‘pirib, toshaman.
Ijobat bo‘lar tilak,
Pishirsa kim ... .

**ko‘k somsa**
**ko‘rgazma**
**oq dasturxon**
**ulgurmoq**

## 2. Tinglang.





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

*Namuna.* ***Mastava**ga nimalar kerak bo‘ladi?*
*Mastavaga **guruch** va **qatiq** kerak bo‘ladi.*




## 4. O‘qing va savollarga javob bering.

### SUMALAK

Har yili maktabimizda Navro‘z bayramini nishonlaymiz. Har bir sinf “**Milliy taomlar**” ko‘rgazmasida qatnashadi. Dmitriy **oq dasturxon** olib keldi. Kamolaning bobosi novvoy. U kishi bayram dasturxonimizga non yopib berdilar. Nonlarni dasturxonimiz o‘rtasiga qo‘ydik. **Ko‘k somsa**, norin, osh, tuxumbarak, tandirkabob bilan dasturxonimiz to‘ldi. Navro‘z bayramida pishiriladigan sumalak yo‘q edi. “Ustoz, ana Botir va Sardor!”

Biz ulgurdik.




## 5. Savollarga javob bering.

1. Bolalar maktabda qaysi bayramni nishonladilar?
2. Sinflar qanday ko‘rgazmada qatnashdi?
3. Kim non pishirib berdi?
4. Dasturxonda qanday taomlar bor?
5. Botir nima olib keldi?

**Mustaqil topshiriq.** Sevimli taomingiz haqida yozing.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# MILLIY O‘YINLAR

## 1. Tinglang. O‘qing.







o‘yin
sog‘lom
boshlamoq
bekinmoq
arqon tortmoq









1. Chillak. 2. Eshakmindi. 3. Kurash. 4. Ko‘pkari. 5. Arqon tortish. 6. Oq terakmi, ko‘k terak. 7. Bekinmachoq.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘qing. Tinglang.

Dunyodagi barcha bolalar o‘yinlarni yaxshi ko‘radilar. O‘yinlar bizni sog‘lom qiladi, kayfiyatimizni ko‘taradi. O‘yinlarni kattalar ham, kichiklar ham o‘ynaydilar. O‘zbekistonda qadimdan kurash, eshakmindi, ko‘pkari, arqon tortish, chillak, bekinmachoq, oq terakmi, ko‘k terak kabi o‘yinlar bo‘lgan. Bolalar bekinmachoq o‘yinini yaxshi ko‘rib o‘ynaydilar. Uni “Landi-landi, o‘yin boshlandi!” deb boshlaydilar.

## 3. O‘ylang va savollarga javob bering.



1. Bolalar qaysi o‘yinni yaxshi ko‘rib o‘ynaydilar?
2. O‘yinlarni kattalar ham o‘ynaydilarmi?
3. O‘zbekistonda qadimdan qanday o‘yinlar bo‘lgan?
4. Sport turiga aylanib ketgan o‘yinlarni bilasizmi?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. Tinglang. O‘qing.

Durracham qo‘lda,
Sekin yuraman.
Kimnidir tanlab,
Asta tashlayman.
Orqangga qara,
Tez meni quvla.

## 5. O‘ylang va toping.

1



2



3



**Mustaqil topshiriq.** O‘yinlar nomini yozib keling.

# LAYLAK KELDI

ketma-ket
tez
sekin
yonma-yon
zo‘rg‘a

## 1. Tinglang. O‘qing.

Arqon tortish – judayam qiziq o‘yin. Unda ishtirokchilar ketma-ket turadilar. Arqonni har bir ishtirokchi ushlab turadi. Hakam hushtak chaladi. Tomonlar arqonni o‘zlariga tez tortadilar.





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



**Bekinmachoq** – bolalarning sevimli o'yini. Unda bir bola ko'zlarini yumib turadi. 10 gacha **sekin** sanaydi. Boshqa bolalar bekinadilar. Sanash tugaydi. Keyin bolalarni topish boshlanadi.

**Oq terakmi, ko'k terak** – jamoaviy o'yin. Bolalar **yonma-yon** turib, bir-birlarining qo'llaridan qattiq tutadilar.



Keyin "Oq terakmi, ko'k terak, Bizdan sizga kim kerak?" deb so'raydilar. Guruhdagi bir bola tanlanadi. Shu bola **tez** yugurib borib, raqiblarining qo'lini uzib o'tishi kerak. Bolalar raqib chegarasini **zo'rg'a** yorib o'tadilar.





## 2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Arqon tortish o'yinda ishtirokchilar yonma-yon turadilar.
2. Arqonni tomonlar o'zlariga tez tortadilar.
3. Oq terakmi, ko'k terak o'yinida bolalar yonma-yon turib, bir-birlarining qo'llaridan mahkam tutadilar.
4. Bekinmachoq o'yinida bir bola ko'zlarini yumib turadi.

## 3. Savollarga javob bering.

ketma-ket, **tez**, sekin, yonma-yon, zo'rg'a

1. Bekinmachoqda **tez** bekinish kerak.
2. Bolalar arqonni … tortdilar.
3. Oq terakmi, ko'k terak o'yinida bolalar … turadilar.
4. Arqon tortganda bolalar … turishadi.
5. Bekinmachoqda 10 gacha … sanaladi.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. Tinglang. O‘qing. Bajaring.

Laylak keldi,
Tuxum qo‘ydi.
Soni nechta?
10 ta.

Bir, ikki, uch,
to‘rt, besh,
olti, yetti,
sakkiz,
to‘qqiz,
o‘n.



**Mustaqil topshiriq.** *Ketma-ket, tez, sekin, yonma-yon, zo‘rg‘a* so‘zlaridan foydalanib gaplar tuzib keling.

# MEN KIMMAN?

## 1. O‘ylang. Toping. Gapiring.




*Namuna.* Nyama – Afrika xalqlari milliy o‘yini.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. Tinglang. O‘qing.

Nyama o‘yinida sardor go‘shtini yeyish mumkin bo‘lgan hayvon nomini aytadi. Siz “Nyama, nyama, nyama” deb baqirishingiz kerak. Bu so‘z suaxili tilida “go‘sht” degan ma’noni anglatadi. “Nyama, nyama, nyama” deyilgan payt siz aylanada turasiz, sardor esa o‘rtada turadi. Hayvon nomi aytilganda guruh o‘rnidan sakrab turadi. Bu o‘yin Sharqiy Afrikada o‘ynaladi. Uni barcha yoshdagi bolalar biladi.



## 3. O‘ylang va toping.

**1. “Nyama” so‘zining ma’nosini aniqlang.**

A. Hayvon
B. Go‘sht
D. O‘simlik

**2. “Nyama” qaysi xalq o‘yini?**

A. Afrika xalqlari
B. Osiyo xalqlari
D. Yevropa xalqlari

**3. Qaysi hayvonning go‘shtini yeyish mumkin emas?**

A. Sigir
B. Quyon
D. Timsoh

**4. “Nyama” o‘yinining maqsadini aniqlang.**

A. Hayvonlarni himoya qilish
B. O‘simliklarni himoya qilish
D. Suvni tejashga o‘rgatish

**jar**
**baqirmoq**
**aylana**
**xalq**
**maqsad**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. O‘ylang va toping. Savollarga javob bering.

### “MEN KIMMAN?”




qattiq
o‘ynasa bo‘ladimi?

**1.** Bu qattiqmi?
**2.** Buni kiyamizmi?
**3.** Buni o‘ynasa bo‘ladimi?
**4.** Bu shirinmi?
**5.** Buni yesa bo‘ladimi?
**6.** Bu tortmi?





HA YO‘Q

**Mustaqil topshiriq.** Rasmlarga yuqoridagi kabi savollar tuzing.







*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

**Qani, ketdik!**

1


... qanday kun?

2

*Vatan – ... .*
*Nishonlamoq – ... .*

3

... himoya qiladi.

4

Qanday libos?

5

Men ... ket... .

6

Denisga ... kerak.

7

Men ... ichyap... .

8

Bu – ... ... .

9

Navro‘zda ... tayyorla... .

10

... keldi.

11

Men ... ket... .

12

Mastavaga ..., ... kerak.

13

Men ... .

14

... juda achchiq.

15

Bu kim?

**Marra!**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# IXTIROCHI TENGDOSHLARIM





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# IXTIRO QILISH MUMKINMI?

## 1. O‘qing. Tinglang.



Kompyuter o‘yinlari barcha bolalar**ga** **yoqadi**. Davron ham har kuni kompyuterda o‘yin o‘ynaydi. Lekin bunda me’yorni bilmayapti. Hozir Davronning baholari pasayib ketgan. Ko‘zlari esa tezda og‘rib qolyapti. Kasal bo‘lish Davron**ga** **yoqmaydi.**

Davron ixtirochi tengdoshlariga murojaat qildi: “Menga yordam kerak. Kompyuter o‘yinlarini me’yorida o‘ynamoqchiman. Bolalarni nazorat qiladigan biror qurilma yoki robot ixtiro qilish mumkinmi?”

**me’yor**
**tengdosh**
**qurilma**
**nazorat qilmoq**

## 2. Savollarga javob bering.

1. Siz Davronga qanday maslahat berardingiz?
2. Kompyuter o‘yinlari o‘ynaganda o‘zingizni qanday nazorat qilasiz?

## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

**Kompyuter o‘yinlari** | **Kasal bo‘lish** | **Ko‘p uxlash** | **Past baho olish** | **Ixtirolar qilish** | **Telefondan ko‘p foydalanish**

1. *Past baho olish* o‘quvchilarga yoqmaydi.
2. … bolalarga yoqadi.
3. … Davronga yoqmaydi.
4. … ixtirochi bolalarga yoqadi.
5. … buvimga yoqmaydi.
6. … uyquchi bolalarga yoqadi.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. O‘ylang va toping. Gapiring.

😊 yoqadi / ☹ yoqmaydi

| | Davron | Aziza | Maks | Asel | Denis |
|---|---|---|---|---|---|
| **Muzqaymoq** | 😊 | | ☹ | 😊 | |
| **Kitob o‘qish** | | 😊 | | | 😊 |
| **Yakshanba** | ☹ | | 😊 | | |
| **Sayohatga chiqish** | | | | 😊 | ☹ |
| **Muzeylarga borish** | | 😊 | ☹ | | |
| **Suzish** | | | 😊 | | 😊 |
| **Kompyuter o‘yinlari** | 😊 | ☹ | | ☹ | |

*Namuna.* *Davronga muzqaymoq, kompyuter o‘yinlari yoqadi. Unga yakshanba yoqmaydi.*

**Mustaqil topshiriq.** ***Tengdoshlar, ixtiro, qurilma, bolalar*** so‘zlaridan foydalanib 3–4 ta gap tuzing.

## O‘Z QO‘LINGDA

### 1. Tinglang. O‘qing.



Do‘stim Davron, assalomu alaykum! Men ham avvallari kompyuter o‘yinlarini ko‘p o‘ynar edim. Onam menga “bukrider” (elektron kitob o‘qish qurilmasi) sovg‘a qildilar. Hozir unda kitoblar o‘qiyapman. Senga ham ko‘proq kitob o‘qishni maslahat beraman.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



Salom, Davron! Sen kuchlisan! Senga ishonaman. Kompyuter o‘yinlari seni boshqara olmaydi. Sog‘liqni saqlash o‘z qo‘lingda. Himoya ko‘zoynagini taqishni ham unutma! U foydali.

Davron, sen robototexnika haqida eshitganmisan? U qiziq mashg‘ulot. Robototexnika to‘garaklariga qatnash. U senga judayam yoqadi. Balki, kerakli qurilma yoki robotni o‘zing ixtiro qilishni o‘rganib olarsan?



## 2. Savollarga javob bering.

*Namuna.* 1. *Davronga kim himoya ko‘zoynagi taqishni aytdi? Davronga himoya ko‘zoynagi taqishni Kevin aytdi.*

2. Ja’farga onasi nima sovg‘a qilgan?
3. Mariya Davronga qanday maslahat berdi?
4. Kim Davronga ishonadi?
5. Ja’far Davronga qanday maslahat berdi?

**maslahat**
**kuchli**
**ishonmoq**

## Diqqat qiling!

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mening | ... **-im** /**-m** | Bizning | ... **-imiz** /**-miz** |
| Sening | ... **-ing** / **-ng** | Sizning | ... **-ingiz** / **-ngiz** |
| Uning | ... **-i**/**-si** | Ularning | ... **-lari**/**-i** |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

| | kitob | ona | kompyuter | ko‘z | fleshka | telefon |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Mening | | | kompyuterim | | | |
| Sening | | | | | | telefoning |
| Uning | | onasi | | | | |
| Bizning | | | | | fleshkamiz | |
| Sizning | kitobingiz | | | | | |
| Ularning | | | | ko‘zlari | | |

**Mustaqil topshiriq.** ***“O‘z qo‘lingda”*** *iborasidan foydalanib 2 ta gap tuzing.*

# SINMAYDIGAN KO‘ZOYNAK

## 1. Tinglang va o‘qing.

**Erlan:** Aziza, sen bir soatda necha bet kitob **o‘qiysan**?
**Aziza:** Bilmadim.
**Erlan:** Men buni sinab ko‘rdim.
**Aziza:** Xo‘sh, necha bet **o‘qiding**?
**Erlan:** Sakkiz betni arang **o‘qidim**.
**Aziza:** Nega? Qiyin ekanmi?
**Erlan:** Yo‘q, ko‘zoynagim sinib qolgan edi.
**Aziza:** To‘g‘ri, ko‘zoynaging bo‘lganda qiynalmasding.



**bet**
**qiynalmaslik**
**o‘t o‘chirmoq**
**tuzatmoq**
**aniqlamoq**

## Diqqat qiling!

O‘qimoq – **y** + o‘qi**y** olmoq
Chizmoq – **a** + chiz**a** olmoq

**- y**
+ olmoq
**- a**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylang va toping. Gapiring.

*Namuna.* *Oshpaz tort pishira oladi.*





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. Tinglang. O‘qing. Savollarga javob bering.

Optik ko‘zoynaklar Italiyada 13-asrda ixtiro qilingan. Uning ixtirochisi Salvino Armati hisoblanadi. Bugungi kunda optik ko‘zoynaklar va himoya ko‘zoynaklari bor. Himoya ko‘zoynaklari qattiq shamol, quyosh nuri yoki yorug‘likdan himoya qiladi.



**Bu kim?**



**Bu nima?**



**Bular qanday ko‘zoynakalar?**




**Buni qayerda ko‘rgansiz?**

**Mustaqil topshiriq.** 1 soatda necha bet kitob o‘qiy olishingizni aniqlab keling.

ixtirochi
yorug‘lik

## Lui Brayl kim?

### 1. Tinglang. O‘qing.

Lui 3 yoshida og‘ir ko‘z infeksiyasi bilan kasallandi. Infeksiya uni ko‘r qilib qo‘ydi. U o‘qishni juda xohlardi. Lekin harflarni ko‘rmas edi. Bir kuni Lui bo‘rtib chiqqan harflar haqida o‘ylab qoldi. Natijada 12 yoshidayoq bo‘rtma harflarni ixtiro qildi. O‘z ishini ilk bor 1924-yilda taqdim etdi. Lui Braylning ixtirosi uning nomi bilan “Brayl alifbosi” deb nomlandi.









*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylang. Gapiring.

**tez, sekin, zo‘rg‘a, asta**

*12 yoshida … .*
*3 yoshida … .*
*1924-yilda … .*

**Diqqat qiling!**


tez


sekin


zo‘rg‘a


asta

## 3. O‘ylang va toping. Gapiring.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Davron | ertalab | sekin | yuguradi. |
| Aziza | brayl alifbosida | zo‘rg‘a | o‘qigan. |
| Lui | stadionda | asta | uyg‘ondi. |
| Asel | kapalakni | tez | tutib oldi. |

## 4. O‘ylang. Gapiring.

**Lift**



**Noutbuk klaviaturasi**



**Dori**



**TV pulti**





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

**Mustaqil topshiriq.** *Tez, sekin, zo‘rg‘a* so‘zlarini qatnashtirib gaplar tuzing.







... tushyapti. ... haydayapti. ... ko‘tarilyapti.

## OGOH BO‘LING

### 1. O‘ylang va toping.

Kim? Nima? Nechta? Qanday? Qayerda? Qachon?



Bu ...? Bu – o‘qituvchi.



Bu ...? Bu – kitob.



Tuxumlar ...? Tuxumlar 6 ta.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



Bu ... ko‘ylak? Bu qizil ko‘ylak.

Koptok ...? Koptok maydonda.



Avtobus ... keladi?
Avtobus 8:00 da keladi.




duradgor
bekat

## 2. O‘ylang. Toping. Yozing.

Bola, xat,
samolyot, duradgor, parta, Aziza,
Davron, choynak, ukki, masxaraboz,
raqqosa, chaqaloq, isiriq, Asel, oshpaz, kitob,
shifokor, zargar,
zardo‘z, **Kim?** **Nima?** kapalak,
qarg‘a, g‘oz,
Navoiy, sher, chumoli, uchuvchi,
gul, o‘qituvchi, kenguru, Bobur,
opa, kompyuter, dada, telefon,
qo‘g‘irchoq, Denis, tarozi.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

### 3. Qarang. O‘ylang va toping. Gapiring.

Rasmda tasvirlangan narsa-buyumlar sonini, rangini, qayerdaligini aniqlang.



| NIMA? | QANDAY? | QAYERDA? | NECHTA? |
|---|---|---|---|
| olma | shirin | likopda | 5 ta |
| ... | | | |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. O‘qing. Savollarga javob bering.



o‘yinchoq
o‘rtasida
tavsiya bermoq
tasvirlamoq
buyum

Bu – Ahmadning xonasi. Ahmad ko‘p vaqtini shu yerda o‘tkazadi. Uning xonasida gullar, o‘yinchoqlar, kitoblar bor. Derazaning yonida stol bor. Stolning ustida kompyuter va gullar turibdi. To‘g‘rida esa shkaf bor. Shkafdan Ahmadning kiyimlari joy olgan. Karavot tagida mushuk yotibdi. Karavot ustida Ahmadning ko‘ylagi, shimi turibdi. Javonga kitoblar terilgan. Unung ustida esa globus bor.

1. Bu kimning xonasi?
2. Xonada nimalar bor?
3. Kompyuter, gular, mushuk, kitoblar, globus qayerda?
4. Ahmadning hamma kiyimlari shkafdami? Siz Ahmadga qanday tavsiya berasiz?

**Mustaqil topshiriq.** Xonangizni tasvirlang, buyumlar sonini sanang. *Ustida, ichida, tagida, yonida, o‘rtasida* so‘zlarini ishlating.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# KOʻZOYNAK

## 1. Oʻylang va gapiring.

| Mumkin emas | Mumkin |
|---|---|
| Mikrotoʻlqinli pechda zarli idish ishlatish |  |
| Sovitkichga issiq ovqat qoʻyish |  |
| Sovitkich ustiga qaychi, pichoq soat, ogʻir narsalar qoʻyish |  |
| Rakovinaga ovqat qoldiqlarini tashlash |  |
| Eshikni ochgach, kalitni eshikda qoldirish |  |

**zarli idish**
**ishlatish**
**ogʻir**
**ovqat qoldiqlari**
**qoldirmoq**
**yaqin**
**taqmoq**
**tizza**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| | |
|---|---|
| Televizorni yaqindan ko‘rish |  |
| Noutbukni o‘yin o‘ynash vositasiga aylantirish |  |
| Tunda telefon o‘ynash |  |
| Bobo va buvining ko‘zoynagini taqish |  |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. O‘ylang va toping. Gapiring.

*Namuna.* Mikroto‘lqinli pech uchun maxsus idishlar bor.

| | |
|---|---|
| Mikroto‘lqinli pech uchun | kalitni eshikda qoldirish mumkin emas. |
| Eshikni ochgach, | qo‘yish mumkin emas. |
| Kattalarning ko‘zoynagini | taqish mumkin emas. |
| Sovitkichga issiq ovqat | soat, qaychi, pichoq qo‘yish mumkin emas. |
| Sovitkich ustiga | yaqindan ko‘rish mumkin emas. |
| Televizorni | maxsus idishlar bor. |

## Diqqat qiling!

**QACHON?**

**Kecha**
**Bugun**
**Ertaga**

**Ertalab**
**Kechqurun**
**Kunduzi**

**7:30 da**
**12:00 da**
**18:00 da**

**Kuzda**
**Qishda**
**Bahorda**
**Yozda**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O'qing. O'ylang va toping.

– Karim, ko'zoynagim qayerda?

– Bobojon… iltimos, meni kechiring.

– Nima bo'ldi?

– Men kecha ko'zoynagingizni bilmasdan sindirib qo'ydim.

– Eh, bolam. Yaxshi ish qilmabsan. Unda dorining qog'ozini o'qib ber.

– Xo'p bo'ladi, bobojon.

– Ho'sh, qachon ichish kerak ekan?

– Ertalab va kechqurun. Hozir ichasizmi?

– Ha, hozir ichaman.

– Unda men suv olib kelaman.

– Rahmat, bolam!

– Bobojon, mana suv.

– Bolam, qachon chiqarilgan ekan? Sanasiga qara-chi.




Bolalar, siz ham bobo-buvingizga yordam bering.

## 4. Savollarga javob bering.

**QACHON?**

Karim ko'zoynakni sindirdi?
dorini ichish kerak?
bobosi ko'zoynakni so'radi?
dorining saqlash muddati tugaydi?
Karim suv olib keldi?

*Namuna.* Qachon Karim ko'zoynakni sindirdi?
Karim ko'zoynakni kecha sindirdi.

**Mustaqil topshiriq.** Savollarga javob yozib keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# QARANG, UCHDI!

## 1. Savollarga javob bering.

1. Siz ham varrak uchirganmisiz?
2. Varrak qayerda paydo bo‘lgan?
3. Varrak yasashni bilasizmi?

## 2. O‘qing. Tinglang.

Varrakni xitoyliklar o‘ylab topgan. U dastlab dushmanni qo‘rqitish uchun ishlatilgan. Hozir esa bolalar varrak uchirish uchun bahorda ota-onalari bilan tog‘larga, kengliklarga chiqishadi. Osmonda zarg‘aldoq baliq, yashil va qizil romb, siyohrang va tillarang qush, to‘rtburchak, oq burgut shaklidagi varraklar uchadi. Kimning varragi uchsa: “Qarang, uchdi!”– deb xursand bo‘ladi.




uchmoq
varrak
o‘ylab topmoq
qo‘rqitmoq
to‘rtburchak



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. Savollarga javob bering. Gapiring.

**1.** Varrakni kim o‘ylab topgan?
**2.** Tarixda varrakni nima uchun ishlatishgan?
**3.** Rasmda qanday so‘zlar aks etgan?
**4.** Bolalar qayerda o‘ynayaptilar?
**5.** Bolalar qachon varrak uchiradilar?
**6.** Osmonda nechta varrak bor?
**7.** Varraklar nimalarga o‘xshaydi?
**8.** Qaysi varrak baland uchdi?

**Diqqat qiling!**

**Bu** ⟶ 

**Shu** ⟶ 

**U** ⟶ 

## 4. O‘ylang va toping. Gapiring.

*Namuna.* ***Bu*** varrak Davronniki. ***Shu*** varrakda “Tinchlik” so‘zi yozilgan. ***U*** varrak esa Aselniki. Unda “Do‘stlik” so‘zi yozilgan.

## 5. Varrakda rasm bor. O‘ylang va toping.

**Mustaqil topshiriq.** “Varrak” mavzusida matn yozib keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## BILIB QO‘YGAN YAXSHI

### 1. Tinglang va o‘qing.

| | |
|---|---|
| 1. Qo‘l bilan yuving. | 1. Namlikdan himoya qilish kerak. |
| 2. Dazmollash mumkin emas. | 2. Oyoq bilan bosmang. |
| 3. Yuvish mumkin emas. | 3. Sinishga moyil. |
| 4. 30 darajagacha iliq suvda yuvish mumkin. | 4. Issiqdan himoya qilish kerak. |
| 5. 100 darajagacha issiqlikda dazmollash mumkin. | 5. Yong‘indan uzoqroq saqlang. |

### 2. O‘ylang va toping.






namlik
dazmollamoq
bosmang
sayr qilmoq
aylanmoq
o‘rindiq
chanqamoq

1. Qo‘l bilan yuving.
2. Dazmollash mumkin emas.
3. 30 darajagacha iliq suvda yuvish mumkin.

1. Oyoq bilan bosmang.
2. Sinishga moyil.
3. Namlikdan himoya qilish kerak.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘qing.




Ahmad onasi va ukasi bilan xiyobonga sayrga **chiqdi**. Ular xiyobonni uzoq **aylanishdi**. So‘ng o‘rindiqqa o‘tirib, biroz **dam olishdi**. Ahmadning ukasi chanqagani uchun onasi unga suv **berdi**. Ahmad o‘zi bilan olib chiqqan bananini **yedi**. Onasi Ahmadga bo‘sh baklajkani qizil qutiga, banan po‘chog‘ini esa yashil qutiga tashlashni **buyurdi**.

## 4. Savollarga javob bering.

1. Siz bunday qutilarni qayerlarda ko‘rgansiz?
2. Ahmad nega po‘choq va baklajkani bitta qutiga tashlamadi?
3. Siz ham chiqindini qutilarga saralab tashlaysizmi?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## Diqqat qiling!



**-di** | **-yap** | **-y, -a**

| | |
|---|---|
| -m; | -k; |
| -ng; | -ngiz; |
| -; | -lar. |

| | |
|---|---|
| -man; | -miz; |
| -san; | -siz; |
| -; | -lar. |



**Qizil** – plastik materiallar, polietilen paketlar, baklajkalar.



**Sariq** – aralash qoldiqlar, shisha idishlar, qog‘oz, gazetalar.



**Yashil** – organik materiallar, oziq-ovqat qoldiqlari.

## 5. O‘ylang va toping. Gapiring.




*Namuna. Ko‘k paket va 2 ta baklajka qizil qutiga tashlanadi.*

**Mustaqil topshiriq.** Texnika vositalari qutilaridagi va kiyimlaringizdagi maxsus belgilarni chizib keling.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# ENG, ENG, ENG

## 1. Tinglang va o‘qing.



**marra**
**eng**
**qiziq**
**arqon**
**uloqtirmoq**

Maktabda katta festival bo‘ldi. Unda juda ko‘p musobaqa va tanlovlar o‘tkazildi. O‘quvchilar faol ishtirok etdilar.

Yugurish bo‘yicha musobaqada Sergey marraga birinchi yetib keldi. Zarina esa arqonda **eng** ko‘p sakradi. Jasur bo‘lsa **eng** uzoqqa koptok uloqtirdi. Pazandalar tanlovida Aziza eng shirin tortni tayyorladi. Davron eng katta robotni yasadi. Asel bilan Kevin eng chiroyli rasmni chizishdi. Festival juda zo‘r o‘tdi. O‘quvchilar festivalni “**Eng, eng, eng**” deb atashdi.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 2. Savolga javob bering.

Bu kim?





*Namuna.* Bu – Sergey. U juda tez yuguradi.

**Eng / Juda**

## 3. O‘ylang va toping.

<table>
<tr><td rowspan="6">Eng / Juda</td><td>baland bino.</td></tr>
<tr><td>shirin ... .</td></tr>
<tr><td>qattiq ...</td></tr>
<tr><td>qiziq ... .</td></tr>
<tr><td>ko‘p ... .</td></tr>
<tr><td>katta ... .</td></tr>
<tr><td colspan="2">tort, kitob, odam, bino, tosh, daraxt</td></tr>
</table>



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. O‘ylang va toping.

1 ’’’’  T

2  ’’’’ A  ’’  ’’

3  ’’’’’’ ,  , ’’’’  

4  ’’  ’’’  ’’  ’ ’’’’ fevral

5  ’’’ SMS’

6 ,  ’’’ ’’’ 

**Mustaqil topshiriq. Eng** va **juda** so‘zlaridan foydalanib do‘stlaringizga ta’rif bering.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# BATUT

## 1. Tinglang. O‘qing.

Dam olish kuni dadam bizni batut markaziga olib bordilar. U yerda har xil batutlar bor ekan. To‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat va doira shaklidagi batutlarni ko‘rdik. Men va singlim doira shaklidagi batutda sakradik. U batut eng katta batut edi. Men uning **o‘rtasida** sakradim. Batutda jami 5 ta bola sakradik. Bolalarning ota-onalari batut **atrofida** kuzatib turdilar. Xullas, maza qildik.



## 2. Savollarga javob bering.

1. Davron batut markaziga qachon bordi?
2. U yerda qanday shakldagi batutlar bor ekan?



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

3. Davron qaysi batutda sakradi?
4. Ota-onalar nima qilishdi?

## Diqqat qiling!






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 3. O‘ylang va toping.

**tagida, ichida, o‘rtasida, atrofida, ustida**

Ryukzak … daftar, qalam,
chizg‘ich, kitob, bor.



Stol … noutbuk bor.



Mushuk karavot … yotibdi.



Mevalar stol … turibdi.



Bolalar akvarium …
baliqlarni kuzatyapti.





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## 4. O‘ylang va toping. Gapiring.



**Mustaqil topshiriq.** Rasm chizing. Rasmga ***ichida, ustida, tagida, o‘rtasida, atrofida*** so‘zlarini ishlatib izohlar yozing.

Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

**Qani, ketdik!**

1

Bolalarga ... yoqadi.

2

Tuxumlar ... ta.

3

...ning Vatani qayer?

4

Choynak ... .

5

Koptok quti ... .

6

... ... ... mumkin emas!

7


Aziza ... tushlik qildi.

8

... 1 stakan suv bilan ichiladi.

9

Sabzavot, meva qoldiqlarini ... ...ga solamiz.

10

Bu – ... ... .

11

... bilan ... ... yedi.

12

... olma.

13

Denis ...ni uchirdi.

14

... qalam,
... ruchka.

15

... ...ga solinadi.

**Marra!**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# RANGLAR

siyohrang

jigarrang

pushti

kulrang

olovrang

moviy

qora

qizil

yashil

ko‘k

sariq

oq

| | |
|---|---|
| **1** | bir |
| **2** | ikki |
| **3** | uch |
| **4** | to‘rt |
| **5** | besh |
| **6** | olti |
| **7** | yetti |
| **8** | sakkiz |
| **9** | to‘qqiz |
| **10** | o‘n |

| | |
|---|---|
| **11** | o‘n bir |
| **12** | o‘n ikki |
| **13** | o‘n uch |
| **14** | o‘n to‘rt |
| **15** | o‘n besh |
| **16** | o‘n olti |
| **17** | o‘n yetti |
| **18** | o‘n sakkiz |
| **19** | o‘n to‘qqiz |
| **20** | yigirma |



| | |
|---|---|
| **10** | o‘n |
| **20** | yigirma |
| **30** | o‘ttiz |
| **40** | qirq |
| **50** | ellik |
| **60** | oltmish |
| **70** | yetmish |
| **80** | sakson |
| **90** | to‘qson |
| **100** | yuz |

| | |
|---|---|
| **100** | yuz |
| **200** | ikki yuz |
| **300** | uch yuz |
| **400** | to‘rt yuz |
| **500** | besh yuz |
| **600** | olti yuz |
| **700** | yetti yuz |
| **800** | sakkiz yuz |
| **900** | to‘qqiz yuz |
| **1000** | ming |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## HAFTA KUNLARI




## BAYRAMLAR

**1-yanvar – Yangi yil.**
**14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni.**
**8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni.**
**21-mart – Navro‘z bayrami.**
**9-may – Xotira va qadrlash kuni.**
**1-sentyabr – Mustaqillik kuni.**
**1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni.**
**8-dekabr – O‘zbekiston konstitutsiyasi kuni.**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# TANA A'ZOLARI






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# SEZGI A'ZOLARI






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# SIFATLAR



og‘ir – yengil



novcha – pakana



dangasa – mehnatsevar



kasal – sog‘lom



yosh – qari



go‘zal – xunuk



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



iflos – toza



uzoq – yaqin



uzun – kalta



yangi – eski



keng – tor



katta – kichik



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# GRAMMATIK QOLIPLAR

**O'zbekistondanman** **o'zbekistonlikman**

| | |
|---|---|
| **Men O'zbekistondanman.**<br>**Sen O'zbekistondansan.**<br>**U O'zbekistondandir.** | **Biz O'zbekistondanmiz.**<br>**Siz O'zbekistondansiz.**<br>**Ular O'zbekistondandir.** |

| | |
|---|---|
| **Men o'zbekistonlikman.**<br>**Sen o'zbekistonliksan.**<br>**U o'zbekistonlikdir.** | **Biz o'zbekistonlikmiz.**<br>**Siz o'zbekistonliksiz.**<br>**Ular o'zbekistonlikdir.** |

| | |
|---|---|
|  Mening kitob**im** /**olma-m** | Bizning kitob**imiz** /**olmamiz** |
|  Sening kitob**ing** /**olmang** | Sizning kitob**ingiz** /**olmangiz** |
|  Uning kitob**i** /**olmasi** | Ularning kitob**lari** /**olmalari** |

## Fe'l

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Men** | **kel~~moq~~ -di** | **-m** | **Biz** | **kel~~moq~~ -di** | **-k** |
| **Sen** | | **-ng** | **Siz** | | **-ngiz** |
| **U** | | **-** | **Ular** | | **-lar** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Men** | **kel~~moq~~ -yap** | **-man** | **Biz** | **kel~~moq~~ -yap** | **-miz** |
| **Sen** | | **-san** | **Siz** | | **-siz** |
| **U** | | **-ti** | **Ular** | | **-tilar** |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Men** | **tanlamoq** | **-yman** | **Biz** | **tanlamoq** | **-ymiz** |
| **Sen** | | **-ysan** | **Siz** | | **-ysiz** |
| **U** | | **-ydi** | **Ular** | | **-ydi(lar)** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Men<br>Sen<br>U | soat | 9:00 da | boraman.<br>borasan.<br>boradi. |
| Biz<br>Siz<br>Ular | soat | 9:00 da | boramiz.<br>borasiz.<br>boradilar. |

**O‘qimoq – y + olmoq**

**Chizmoq – a + olmoq**

**– … qayerda?**
**– …ning …da.**

– Kitob **qayerda?**
– Kitob stol**ning** usti**da.**

**Maktab oshxonasi qayerda?**

**Faollar zalining o‘ng tomonida.**

**Kim?** **Nima?** **Nechta?**

**Qanday?** **Qayerda?** **Qachon?**



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# NECHANCHI ...?

| -inchi | -nchi |
|---|---|
| Bir + -inchi | Ikki + -nchi |

Birinchi qavat
Uchinchi sinf
Beshinchi kurs
5-“B” sinf

ikkinchi qator
oltinchi uy
yettinchi bet















*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# KISHILIK OLMOSHLARI

| Shaxs | **Birlik** | Shaxs | **Ko‘plik** |
|---|---|---|---|
| **1** | Men | **1** | Biz |
| **2** | Sen | **2** | Siz |
| **3** | U | **3** | Ular |

## Ko‘rsatish olmoshlari

***Mana*** →  ***Ana*** → 

***Bu***  → 

***Shu***  → 

***U***  → 

## O‘rin ravishlari






*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# XARITADAGI MANZILLAR

***Maktab***



***Kutubxona***



***Bolalar markazi***



***Universitet***



***Institut***



***Istirohat bog‘i***



***Hayvonot bog‘i***



***Sirk***



***Suv havzasi***



***Vokzal***



***Bank***



***Stadion***



***Aeroport***



***Mehmonxona***





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

***Muzey***



***Kinoteatr***



***Konsert zali***



***Mustaqillik maydoni***



***Teleminora***



***Humo arena***



***Oliy Majlis binosi***



***“Hilton” mehmonxonasi***



***Yangi O‘zbekiston bog‘i***



***Amir Temur xiyoboni***



***Sport majmuasi***



***Batut markazi***



***Shifoxona***



***Bolalar maydonchasi***



***Bolalar bog‘chasi***





*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# DUNYO TAOMLARI



Osh (palov)



Somsa



Manti



Norin



Tuxumbarak



Tandirkabob



Lag‘mon



Kuksi



Do‘lma



Xonim



Qozonkabob



Pitsa



Hasip



Sho‘rva



Beshbarmoq



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# HARAKAT FE’LLARI



pishirmoq



ko‘rmoq



eshitmoq



gaplashmoq



tinglamoq



o‘ylamoq



ichmoq



yemoq



o‘tirmoq



o‘ynamoq



raqsga tushmoq



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE





o‘qimoq

yugurmoq





sakramoq

yurmoq







baqirmoq

tepmoq

yer chopmoq





uxlamoq

velosiped uchmoq



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Men, Sen, U — gapir~~moq~~ + -di — -m, -ng, -

Biz, Siz, Ular — gapir~~moq~~ + -di — -k, -ngiz, -lar

Men, Sen, U — gapir~~moq~~ + -yap — -man, -san, -ti

Biz, Siz, Ular — gapir~~moq~~ + -yap — -miz, -siz, -tilar

Men, Sen, U — gapir~~moq~~ + -a — -man, -san, -di

Biz, Siz, Ular — gapir~~moq~~ + -a — -miz, -siz, -dilar

Men, Sen, U — qara~~moq~~ + -y — -man, -san, -di

Biz, Siz, Ular — qara~~moq~~ + -y — -miz, -siz, -dilar



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# MASHQLAR

## 1. O‘ylang va toping. Gapiring.

*Namuna.*

| | |
|---|---|
| Daftar | Dazmol |
| Qaychi | Qalamdon |

| | |
|---|---|
| Kelmoq | Qaymoq |
| Suzmoq | O‘qimoq |
| O‘zbek tili | Rus tili |
| Ingliz tili | Musiqa |
| Fil | Mushuk |
| Tovuq | Maymun |
| Sakkiz | O‘n besh |
| O‘ttiz | Yetmish |
| Yaponiyalik | Yaponiyadansiz |
| Yaponiyadanman | Yaponiyadansan |
| Dushanba | Juma |
| Yakshanba | Chorshanba |

## 2. O‘ylang. Gaplar tuzing.

*Namuna.* Bahorda gullar ochiladi.

**Bahor, gullar, bayram, nishonlamoq, maktab, sumalak, Navro‘z, qo‘shiq, varrak.**

**3. Transport, Guliston** so‘zlaridagi harflar yordamida yangi so‘zlar hosil qiling.

| Transport | Guliston |
|---|---|
| parta | gilos |
| sport | gul |
| opa | ilon |
| pasport | tol |
| tana | Guli |
| sana | lison |
| Sora | ulus |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| | |
|---|---|
| sana (buyruq) | son |
| rasta | sut |
| tort | is |
| Asror | in |
| tor | it |

## 4. Topishmoqlarning javobini toping.







1. Tinmas bitta,
   Tinglar mingta.

2. Sen ichida tursang tikka,
   Olib chiqar yuksaklikka.

3. Gugurt qutidek kelar,
   Uzoqni yaqin qilar.



4. Tun-u kun yuguradi,
   Charchash nima bilmaydi,
   Hammani shoshiradi,
   O‘zi bir joyda turadi.





5. To‘lib  borar, bo‘sh kelar,
   Og‘zingizga xush kelar.



6. O‘zi bitta, qulog‘i to‘rtta.

7. Qora mushukni dumidan osishadi.



8. Yuzi bitta, ko‘zi mingta.

## 5. O‘ylang va toping.  -chi yoki  ta?

Bugun qanday sana? Bugun 21… may.  Bizning sinfimiz 3…“V”. Sinfimiz 2…qavatda joylashgan.  Sinfimizda 36 … o‘quvchi bor.  Men sinf jurnalida 10…raqamdaman.



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# O‘QUV QUROLLARI

1. Ruchka
2. Qalam
3. Rangli qalamlar
4. Bo‘yoqlar
5. Flomaster
6. Chizg‘ich
7. Sirkul
8. O‘chirg‘ich
9. Rangli qog‘ozlar
10. Rasm daftari
11. Yelim
12. Qaychi
13. Mo‘yqalam
14. Daftar
15. Qalamdon
16. Plastilin
17. Skotch
18. Ryukzak
19. Oq qog‘oz
20. Globus
21. Kalkulyator
22. Kitob
23. Lupa
24. Fleshka








*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# KIYIMLAR

1. Mayka
2. Futbolka
3. Ko‘ylak
4. Nimcha
5. Jemper
6. Palto
7. Kurtka
8. Shim
9. Bo‘yinbog‘
10. Sharf
11. Shapka
12. Shlyapa
13. Kepka
14. Yubka
15. Sarafan
16. Ro‘mol
17. Paypoq
18. Tufli
19. Etik
20. Sandal
21. Krossovka
22. Shorti







*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| O'zbek | Rus | Qozoq | Qirg'iz |
|---|---|---|---|
| A'lochi | отличник | үздік | отличник |
| achchiq | горький, острый | ащы | ачуу |
| ajoyib voqea | замечательная ситуация | қызықты оқиға | кызыктуу окуя |
| albatta | конечно | әрине | албетте |
| aniq | ясно | дәл | так |
| arqon tortish | потянуть за веревку | арқан тарту | аркан тартуу |
| asr | век | ғасыр | кылым |
| Bahor | весна | көктем | жаз |
| bahorgi | весенний | көктемгі | жазгы |
| barcha | все | барлық | баары |
| barmoq yurgizmoq | провести пальцем | саусағын жылжыту | манжаңызды жүргүзүү |
| bezamoq | украшать | безендіру | коолдоо |
| bekinmachoq | прятки | жасырынбақ | жашынмак |
| belgilamoq | определить | белгілеу | белгилөө |
| bekitmoq | прикрыть | жасыру | жашыруу |
| bermoq | дать | беру | берүү |
| bilmoq | знать | білу | билүү |
| bo'rtib chiqmoq | преувеличивать | ісіп шығу | бөрттүп чыккан |
| bobo-buvilar | бабушки и дедушки | ата-әжелер | чоң ата – чоң энелер |
| MTM (bog'cha) | детский сад | балабақша | бала бакча |
| bugun | сегодня | бүгін | бүгүн |
| Do'kon | магазин | дүкен | дүкөн |
| do'l | град | бұршақ | мөндүр |
| do'st | друг | дос | дос |
| dori | лекарство | дәрі | дары |
| doskani artmoq | вытирать доску | тақтаны тазалау | досканы тазалоо |
| durracha | платок, косынка | Әйелдерге арналған мойын орамал | кыйык |
| Erta | ранний | ерте | эрте |
| ertaga | завтра | ертең | эртеге |
| ertalab | утром | таңертең | эртең менен |
| eshitmoq | слышать | есту | угуу |
| eski | старый | ескі | эски |
| Foydali | полезный | пайдалы | пайдалуу |
| Gap eshitmoq | наслышаться | сөз есіту | сөз угуу |
| gapirmoq | говорить | сөйлеу | сүйлөө |
| go'sht | мясо | ет | эт |
| guruh | группа | топ | топ |
| Harakat qilmoq | двигаться | әрекет жасау | аракет кылуу |
| hayvon | животное | жануар | жаныбар |
| himoya qilmoq | защищать | қорғау | коргоо |
| hisoblanmoq | считать | есептеу | эсептөө |
| holat | состояние | жағдай | жагдай |
| hozir | сейчас | қазір | азыр |
| hushtak | свисток | ысқырық | ышкырык |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| Turkman | Tojik | Qoraqalpoq | Ingliz |
|---|---|---|---|
| başlikçi | аълочӣ | úlgili | excellent student |
| ajy | талх | ashshı | bitter |
| ajaýyp waka | воқеаи аҷиб | ájayıp waqıya | a great event |
| elbetde | албатта | álbette | certainly |
| anyk; takyk | аниқ | anıq | precise |
| ýüp çekmek | арғамчинкашӣ | arqan tartıw | rope pulling |
| asyr | аср | ásir | century |
| bahar | баҳор | báhár | Spring |
| ýazky | баҳорӣ | báhárgi | related to spring |
| hemme; ähli | ҳама | bárshe | all |
| barmagyňy ýüretmek | ангуштонро роҳ гардонидан | barmaq júrgiziw | to run a finger |
| bezemek | оро додан | bezew | to decorate |
| gizlenpeçek | рустакшавӣ | jasırınbaq | hide and seek |
| belgilemek | ишора кардан | belgilew | to mark |
| gizläp goýmak | пинҳон кардан | jasırıw | to hide |
| bermek | додан | beriw | to give |
| bilmek | донистан | biliw | to know |
| güberçek, pökgerip çykmak | варам карда баромадан | bórtip shıǵıw | to be embossed |
| baba-mamalar | бобою момоён | ata-kempir apa | grandparents |
| çagalar bagy | боғчаи бачагона | baqsha | kindergarten |
| bu gün | имрӯз | búgin | today |
| dükan | дӯкон | dúkán | shop |
| doly | жола | burshaq | hail |
| dost | дӯстон | dos | friend |
| derman | дору | dári | medicine |
| doskany artmak | тоза кардани тахтаи синф | taxtanı tazalaw | to wipe the board |
| aýal-gyzlaryň kellesine daňýan kiçi ýaglyk | дуррача | oramal | handkerchief |
| ir | пагоҳ | erte | early |
| ertir | ба пагоҳ | erteń | tomorrow |
| irden | пагоҳирӯзӣ | tań azan menen | in the morning |
| eşitmek | гӯш кардан | esitiw | to hear |
| köne | кӯҳна | eski, góne | old |
| peýdaly | фоиданок | paydalı | useful |
| gep eşitmek | гап шунидан | gáp esitiw | to be scolded |
| geplemek; gürlemek | сухан кардан | sóylew | to speak |
| et | гӯшт | gósh | meat |
| topar | гурӯҳ | topar | group |
| hereket etmek | ҳаракат кардан | háreket etiw | to try |
| haýwan | ҳайвон | haywan | animal |
| goramak | ҳимоя кардан | qorǵaw | to defend |
| hasaplamak | ҳисоб кардан | esaplanıw | to be counted |
| ýagdaý | ҳолат | jaǵday | situation |
| häzir | ҳозир | házir | now |
| jürlewük | ҳуштак | ısqırıw | whistle |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| O‘zbek | Rus | Qozoq | Qirg‘iz |
|---|---|---|---|
| Ichiga | внутри | ішінде | ичине |
| ichish tartibi | режим питья | ішу тәртібі | ичүү тартиби |
| ichmoq | пить | ішу | ичүү |
| iliq | тёплый | жылы | жылуу |
| ilk bor | первый раз | бірінші рет | биринчи ирет |
| ish | работа | жұмыс | иш, жумуш |
| ishdan kelmoq | прийти с работы | жұмыстан келу | жумуштан үйгө келүү |
| ishlamoq | работать | жұмыс істеу | иштөө |
| ishonmoq | верить | сену | ишенүү |
| ishtirokchi | участник | қатысушы | катышуучу |
| ixtiro | изобретение | өнертабыс | ойлоп табуу |
| Javob bermoq | отвечать | жауап беру | жооп берүү |
| joylamoq | вставлять | орналастыру | жайгаштыруу |
| joylashmoq | устроиться | орналасу өте | жайгашуу |
| juda qiziq | очень интересно | қызықты | өтө кызык |
| Kapgir | шумовка | кәпкір | капкир |
| kasal bo‘lmoq | заболеть | ауырып қалу | ооруп калуу |
| kechqurun | вечером | кешке | кечинде |
| kelmoq | прийти | келу | келүү |
| keng | широкий | кең | кең |
| kerak | надо | қажет | керек |
| ketma-ket | последовательно | ретімен | удаалаш |
| ketmoq | идти | кету | кетүү |
| kirishmoq | вступить | кірісу | киришүү |
| kiyim | одежда | киім | кийим |
| ko‘r qilib qo‘ymoq | ослепить | соқыр болу | сокур кылуу |
| ko‘rmaslik | не видеть | көрмеу | көрбөстүк |
| ko‘rsatmoq | показать | көрсету | көрсөтүү |
| ko‘tarilmoq | подниматься | көтерілу | көтөрүү |
| ko‘ylak | рубашка, платье | көйлек | көйнөк |
| ko‘z infeksiyasi | глазная инфекция | көз инфекциясы | көз инфекциясы |
| kuchli | сильный | күшті | күчтүү |
| kulrang | серый | сұр | күрөң |
| kunduzi | днём | күндіз | күндүзү |
| kuzatmoq | наблюдать | байқау | байкалган |
| Likop | тарелка | тәрелке | тарелка |
| libos | платье | киім | кийим |
| lug‘at | словарь | сөздік | словарь, сөздүк |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| Turkman | Tojik | Qoraqalpoq | Ingliz |
|---|---|---|---|
| içine | дар дохилаш | ishine | into |
| içiş tertibi | тартиби нўшидан | ishiw tártibi | drinking regime |
| içmek | нўшидан | ishiw | to drink |
| maýyl | нарм | jıllı | warm |
| ilkinji gezek | бори аввал | birinshi ret | first time |
| iş | кор | jumıs | work |
| işden gelmek | аз кор омадан | jumıstan keliw | to come back from work |
| işlemek | кор кардан | jumıs islew | to work |
| ynanmak | бовар кардан | iseniw | to believe |
| gatnaşyjy | иштироккунанда | qatnasıwshı | participant |
| açyş | ихтироъ | oylap tabıw, jaratıw | invention |
| jogap bermek | ҷавоб додан | juwap beriw | to answer |
| ýerleşdirmek | ҷойгир кардан | jaylastırıw | to place |
| ýerleşmek | ҷойгир шудан | jaylasuv | settle down |
| örän gyzykly | хеле ҷолиб | juda qızıq | very interesting |
| kepgir | кафгир | kepkir | spatula |
| näsaglamak | бемор шудан | kesel bolıw | to be sick / to get sick |
| agşam | бегоҳирўзӣ | keshte | at night |
| gelmek | омадан | keliw | to come |
| giň | васеъ | keń | wide |
| gerek | лозим | kerek | need / necessary |
| yzma-yz | пайдарпай | izbe-iz | in sequence |
| gitmek | рафтан | ketiw | to go/to leave |
| girişmek | даромадан | kirisiw | to start/ to enter |
| geýim | либос | kiyim | clothes |
| kör bolmak | кўр кардан | soqır etip qoyıw | to make smb blind |
| görmezlik | нодидан | kórmew | to be blind / not seeing |
| görkezmek | нишон додан | kórsetpew | to show |
| göterilmek | боло баромадан | kóteriliw | to rise |
| köýnek | курта | kóylek | shirt /dress |
| göz infeksiýasy | инфексияи чашм | kóz infekciyası | eye infection |
| güýçli | бақувват | kúshli | strong |
| çal | хокистарранг | kúlreń | grey |
| gündiz | рўзона | kúndiz | during the day |
| sunlamak | гусел кардан | baqlaw | to observe |
| gap | зарф | ıdıs-tabaq | plate |
| geýim | либос | kiyim | dress |
| sözlük | луғат | sózlik | dictionary/vocabulary |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| O'zbek | Rus | Qozoq | Qirg'iz |
|---|---|---|---|
| Ma'noni anglatmoq | значение | мағынаны білдіреді | маанисин билдирген |
| mahsulot | продукт | өнім | продукт |
| mashhur | известный | атақты | атактуу, белгилүү |
| maslahat | совет | кеңес | кеңеш |
| maxsus | особый | арнайы | атайын |
| mayda | небольшой, мелкий | кішкентай, ұсақ | майда |
| maydon | площадь | алаң | майдан |
| maysa | трава | шөп | чөптөр |
| mazali | вкусный | дәмді | даамдуу, таттуу |
| me'yor | норма | норма | норма |
| moviy osmon | синее небо | көк аспан | көк асман |
| muddat | срок | мерзім | мөөнөтү |
| murabbo | варенье | джем | варенье |
| mustahkamlamoq | укреплять, закрепить | нығайту, бекіту | бышыктоо |
| Nazorat | контроль | бақылау | текшерүү |
| Nima bo'ldi? | что случилось? | не болды? | эмне болду? |
| nomlamoq | назвать | аталуы | атоо |
| nordon | кислый | қышқыл | кычкыл |
| Ochmoq | открыт | ашу | ачуу |
| oddiy | простой | қарапайым | жөнөкөй |
| og'ir | тяжелый | ауыр | оор |
| olib bering | подайте | алып жіберу | алып бер |
| olib bermoq | подать | алып беру | алып берүү |
| olib kelmoq | принести | алып келу | алып келүү |
| olmali | яблочный | алмалы | алмалуу |
| olmoq | брать | алу | алуу |
| olovrang | оранжевый | қызғылт сары | кызгылт-сары |
| ovqat | еда | тамақ | тамак |
| ovqatlanmoq | кушать | тамақтану | тамактануу |
| ozg'in | худой | арық | ичке |
| Patnis | поднос | пәтніс | паднис |
| pichirlamoq | говорить шёпотом | сыбырлау | шыбыроо |
| pichoq | нож | пышақ | бычак |
| po'st | кожица | тері | кабык |
| pushti | розовый | қызғылт | кызгылт |
| Qadam | шаг | қадам | кадам |
| qalin | толстый | қалың | калын |
| qanday? | как? | қандай? | кандай? |
| qaramoq | смотреть | қарау | кара |
| qari | старый | қария | кары |
| qarindoshlar | родные, родственники | туысқандар | туугандар |
| qarshimizda | перед нами | алдымызда | алдыбызда |
| qattiq | жёсткий | қатты | катуу |
| qattiq xohlamoq | сильно хотеть | қатты қалайды, сағыныш | катуу калоо |
| qaychi | ножницы | қайшы | кайчы |
| qayerda? | где? | қайда? | кайда? |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| Turkman | Tojik | Qoraqalpoq | Ingliz |
|---|---|---|---|
| manyny aňlatmak | маъноящро фаҳмонидан | mánisin ańlaw | to mean |
| önüm | маҳсулот | ónim | product |
| meşhur | машҳур | ataqlı | famous/popular |
| maslahat | маслиҳат | másláhát, keńes | advice |
| mahsus | махсус | arnawlı | special |
| maýda | майда | mayda | small |
| meýdan | майдон | maydan | area |
| maýsa | майсаҳо | kók shóp | grass |
| mazaly; süýji | бомаза | mazalı | delicious |
| möçber | меъёр | ólshem | norm |
| gök asman | осмони кабуд | kók aspan | blue sky |
| möhlet | муддат | múddet | term/time/period |
| mürepbe | мураббо | varenie | jam |
| berkitmek | мустаҳкам намудан | bekkemlew | to strengthen |
| gözegçilik | назорат | qadaǵalaw | control |
| näme boldy? | чӣ шуд? | ne boldı? | What happened? |
| atlandyrmak | номидан | ataw | to name |
| turşy | турш | qıshqıl | sour |
| açmak | кушодан | ashıw | to open |
| ýönekeý | оддӣ | ápiwayı | simple |
| agyr | вазнин | awır | heavy |
| alyp beriň | гирифта диҳед | alıp beriń | Take me smth |
| alyp bermek | гирифта додан | alıp beriw | to take |
| alyp gelmek | гирифта овардан | alıp keliw | to bring |
| almaly | себнок | almalı | apple, related to apple |
| almak | гирифтан | alıw | to take |
| mämişi | оташранг | oranjevıy | orange |
| nahar | хӯрок | awqat | food |
| naharlanmak | хӯрок пухтан | awqatlanıw | to eat |
| arryk, hor | хароб | arıq | thin |
| mejme; podnos | лаълӣ | padnos, tabaq | tray |
| pyşyrdamak | пичирос задан | sıbırlaw | to whisper |
| pyçak | корд | pıshaq | knife |
| deri | пӯст | sırtqı qabıq | skin |
| gülgüne | гулобӣ | qızǵılt | pink |
| ädim | қадамҳо | qádem | step |
| galyň | ғафс | qalıń | thick |
| nähili? | чӣ хел? | qanday? | How? |
| garry | нигаристан | qaraw | to look |
| garyndaşlar | пир | ǵarrı | old |
| garşymyzda | хешовандон | tuwısqanlar | relatives |
| gatty, berk | дар рӯбарӯямон | aldımızda | in front of us |
| çyn ýürekden islemek | сахт | qattı | solid |
| gaýçy | хеле хостан | qattı qálew | to desire / to want |
| nirede? | қайчӣ | qayshı | scissors |
| | дар куҷо? | qaysı jerde? | Where? |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| O‘zbek | Rus | Qozoq | Qirg‘iz |
|---|---|---|---|
| qilmoq | делать | жасау, істеу | кылуу |
| qishda | зимой | қыста | кышта |
| qishki | зимний | қысқы | кышкы |
| qisqa | короткий | қысқа | кыска |
| qiziq | интересный | қызық | кызык |
| qiziqmoq | интересоваться | қызығу | кызыгуу |
| qo‘l ko‘tarmoq | поднять руку | қол көтеру | кол көтөрүү |
| qo‘ymoq | поставить | қою | коюу |
| qutilar | коробки | қораптар | кутулар |
| quvontirmoq | радовать | қуанту | кубантыруу |
| quyon | заяц | қоян | коён |
| quyosh nuri | солнечный свет | күн сәулесі | күндүн нуру |
| **R**angli qog‘oz | цветная бумага | түсті қағаз | түстүү кагаз |
| rasm chizmoq | нарисовать картину | сурет салу | сүрөт тартуу |
| rasm daftar | альбом для рисования | сурет дәптер | сүрөт дептери |
| rasm to‘garagi | кружок рисования | сурет үйірмесі | сүрөт куружогу |
| rasta | торговый ряд | сауда қатары | катар |
| **S**afar | поездка | сапар | саякат |
| sakrab turmoq | прыгать | секіру | секирүү |
| sanamoq | считать | санау | саноо |
| saqlamoq | хранить | сақтау | сактоо |
| sartarosh | парикмахер | шаштараз | чач тарач |
| savat | корзина | себет | себет |
| sayohat | путешествовать | саяхат | саякат |
| semiz | толстый | семіз | семиз |
| sindirmoq | сломать | сындыру | сындыруу |
| siyohrang | фиолетовый | күлгін | кызгылт-көк |
| sotib olmoq | покупать | сатып алу | сатып алуу |
| sotuvchi | продавец | сатушы | сатуучу |
| sovuq | холодный | суық | суук |
| suhbatlashmoq | общаться, беседовать | әңгімелесу | сүйлөшүү,аңгемелешүү |
| suzish | плавание | жүзу | сүзүү |
| so‘ramoq | спрашивать | сұрау | суроо |
| **T**animoq | узнать (человека) | танып білу | таанып билүү |
| tanlamoq | выбирать | таңдау | тандоо |
| taqdim etmoq | представить | таныстыру | көрсөтүү |
| taqdirlamoq | наградить | марапаттау | сыйлык берүү |
| tejamoq | экономить | үнемді жұмсау | үнөмдөө |
| tikuvchi | швея | тігінші | тигүүчү |
| tiya olmoq | сдерживаться | ұстап тұру | оодуктоо |
| to‘lamoq | платить | төлеу | төлөө |
| turmoq | вставать | тұру | туруу |
| tushmoq | падать | түсу | түшүү |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| Turkman | Tojik | Qoraqalpoq | Ingliz |
|---|---|---|---|
| etmek | кардан | islew | to do |
| gyşda | дар зимистон | qısta | in winter |
| gyşky | зимистона | qısqı | winter, related to winter |
| gysga | кӯтоҳ | qısqa | short |
| gyzyk | аҷиб | qızıqlı | interesting |
| gyzyklanmak | ба шавқ афтодан | qızıǵıw | to be interested in / to be curious |
| el götermek | даст бардоштан | qol kóteriw | to raise hand |
| goýmak | гузоштан | qoyıw | to put |
| gutylar | куттиҳо | qutılar | boxes |
| begendirmek | хурсанд кардан | quwantıw | to delight/to please |
| towşan | харгӯш | qoyan | rabbit |
| gün şöhlesi | нури офтоб | quyash nurı | sunlight |
| reňkli kagyz | коғази ранга | reńli qaǵaz | coloured paper |
| surat çekmek | расм кашидан | súwret salıw | to draw / to paint |
| surat depder | дафтари расм | súwret dápter | painting book |
| surat gurnagy | маҳфили расмкашӣ | Súwret dógeregi | painting circle |
| düz, satuw hatary | раста | qatar | stall |
| sapar | сафар | sapar | trip |
| böküp turmak | ҷаҳида хестан | sekirip turıw | to jump |
| sanamak | шуморидан | sanaw | to count |
| saklamak | нигаҳ доштан | saqlaw | to keep |
| dellek | сартарош | shashtárez | barber /hairdresser |
| sebet | сабад | sebet | basket |
| syýahat | саёҳат | sayaxat | travel |
| semiz | фарбеҳ | semiz | fat/plump |
| syndyrmak; döwmek | шикастан | sındırıw | to break |
| gara reňk | сиёҳранг | sıya reń | violet |
| satyp almak | харида гирифтан | satıp alıw | to buy |
| satyjy | фурӯшанда | satıwshı | salesperson |
| sowuk | хунук | suwıq | cold |
| söhbetleşmek | сӯҳбат кардан | sáwbetlesiw | to talk |
| ýüzmek | шино кардан | súziw | swimming |
| soramak | пурсидан | soraw | to ask |
| tanymak | шинохтан | tanıw | to recognize |
| saýlamak | интихоб кардан | tańlaw | to choose |
| hödürlemek | тақдим кардан | usınıw | to present |
| sylaglamak | мукофотонидан | sıylıqlaw | to reward |
| tygşytlamak | сарфакорӣ | únemlew, tejew | to save |
| tikinçi | дӯзанда | tigiwshi | seamstress |
| saklanmak | худро дошта натавонистан | tıya alıw | to restrain |
| tölemek | супоридан | tólew | to pay |
| turmak | истодан | turıw | to stand up |
| düşmek | афтидан | túsiw | to fall |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| O‘zbek | Rus | Qozoq | Qirg‘iz |
|---|---|---|---|
| tushunmoq | понимать | түсіну | түшүнүү |
| tuzmoq | составить | түзу | түзүү |
| Uchmoq | летать | ұшу | учуу |
| uchramoq | встречаться | кездесу | учуроо |
| uyg‘onmoq | просыпайся | ояну | ойгонуу |
| uzmoq | прервать | үзу | үзүү |
| uzun | длинный | ұзақ | узун |
| Vaqtli turish | раннее пробуждение | ерте тұру | эрте туруу |
| Xohlayapti | хочет, желает | қалайды | каалайт |
| Yangi | новый | жаңа | жаңы |
| yashamoq | жить | өмір сүру | жашоо |
| yaxshi ko‘rmoq | любить | жақсы көру | жакшы көрүү |
| yelim | клей | желім | желим |
| yoqmoq | включить | қосу | жагуу, күйгүзүү |
| yordam bermoq | помочь | көмектесу | жардам берүү |
| yordamchi | помощник | көмекші | жардамчы, көмөкчү |
| yosh | молодой | жас | жаш |
| yozda | летом | жазда | жайда |
| yozmoq | писать, написать | жазу | жазуу |
| yuvmoq | стирать, мыть | жуу | жуу |
| Zamon | время | заман | заман |
| zamonaviy | современный | қазіргі заманғы | заманбап |
| O‘quv qurollari | инструменты, приборы | оқу құралдары | окуу куралдары |
| o‘rgatmoq | учить | үйрету | үйрөтүү |
| o‘rin | место | орын | орун |
| o‘rtoqlar | друзья | достар | курдаштар |
| o‘simlik | растение | өсімдік | өсүмдүк |
| o‘tirmoq | сидеть | отыру | отуруу |
| o‘ylab qolmoq | думать, раздумывать | ойлау | ойлоп калуу |
| o‘ynamoq | играть | ойнау | ойноо |
| G‘olib | победитель | жеңімпаз | жеңүүчү |
| Shakl | форма | пішін | форма |
| Sharqiy Afrika | Восточная Африка | Шығыс Африка | Чыгыш Африка |
| shirin | сладкий | тәтті | ширин |
| sho‘r | солёный | тұзды | туздуу |
| shoshmoq | торопиться | асығу | шашып |
| Chalmoq | играть | шалу | ойноо |
| chiqarmoq | вынести | шығару | чыгуу |
| chizmoq | рисовать | сызу | сызуу,чийүү |
| chuchuk | пресная | балғын, жаңа піскен | чучук |
| cho‘mich | половник, черпак | шөміш | чөмүч |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

| Turkman | Tojik | Qoraqalpoq | Ingliz |
|---|---|---|---|
| düşünmek | фаҳмидан | túsiniw | to understand |
| düzmek | сохтан | dúziw | to make / to compose / to create |
| uçmak | паридан | ushıw | to fly |
| duş gelmek | вохӯрдан | ushıraw, duslasıw | to come into |
| oýanmak | хестан | oyanıw | to wake up |
| üzmek | шикастан | úziw | to cut |
| uzyn | дароз | úzun | long |
| ir turmak | барвақт хестан | erte turıw | waking up early |
| isleýär | дархостан | qálep atır | smb wants |
| täze | нав | jańa | new |
| ýaşamak | зиндагӣ кардан | jasaw | to live |
| gowy görmek | дӯст доштан | jaqsı kóriw | to like |
| ýelim | ширеш | jelim | glue |
| ýakmak | маъқул шудан | jağıw | to turn on |
| kömek etmek | кӯмак додан | járdem beriw | to help |
| kömekçi | ёрирасон | járdemshi | assistant |
| ýaş | синну сол | jas | young |
| tomusda | дар тобистон | jazda | in summer |
| ýazmak | навиштан | jazıw | to write |
| ýuwdyk | шустем | juwıw | to wash |
| zaman | замон | zaman | period |
| döwrebap | замонавӣ | zamanagóy | modern |
| okuw gurallary | асбобҳои хониш | oqıw quralları | school things |
| öwretmek | ёд додан | úyretiw | to teach |
| orun | чой | orın | place |
| dostlar | ҷӯраҳо | doslar | friends |
| ösümlik | растаниҳо | ósimlik | plant |
| oturmak | нишастан | otırıw | to sit |
| oýlanyp durmak | фикр кардан | oylap qalıw | to think |
| oýnamak | бозӣ кардан | oynaw | to play |
| ýeňiji | ғолиб | jeńimpaz | winner |
| şekil | шакл | forma | shape |
| Gündogar Arika | Африкаи Шарқӣ | Shığis Afrika | Southern Africa |
| şirin | ширин | mazalı | sweet |
| şor | шӯр | ashshı, duzlı | salty |
| gyssanmak | шитоб кардан | asığıw | to hurry up |
| çalmak | навохтан | shertiw | to play |
| çykarmak | баровардан | shığarıw | to take out |
| çyzmak | кашидан | sızıw | to draw |
| ajy hem däl, süýji hem däl | ширин | dushshı | mild |
| çomuç | кафлес | shómish | laddle |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

# ALIFBO

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Aa | Aa | 16 | Qq | Qq |
| 2 | Bb | Bb | 17 | Rr | Rr |
| 3 | Dd | Dd | 18 | Ss | Ss |
| 4 | Ee | Ee | 19 | Tt | Tt |
| 5 | Ff | Ff | 20 | Uu | Uu |
| 6 | Gg | Gg | 21 | Vv | Vv |
| 7 | Hh | Hh | 22 | Xx | Xx |
| 8 | Ii | Ii | 23 | Yy | Yy |
| 9 | Jj | Jj | 24 | Zz | Zz |
| 10 | Kk | Kk | 25 | O‘o‘ | Õõ |
| 11 | Ll | Ll | 26 | G‘g‘ | G̃g̃ |
| 12 | Mm | Mm | 27 | Shsh | Shsh |
| 13 | Nn | Nn | 28 | Chch | Chch |
| 14 | Oo | Oo | 29 | ng | ng |
| 15 | Pp | Pp | 30 | ’ | (tutuq belgisi) |



*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

*O'quv nashri*

# O'ZBEK TILI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining*
*3-sinfi uchun darslik*

Rassom *Umid Sulaymonov*
Muharrir *Xurshid Ibrohimov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Sahifalovchi va dizayner *Ixvoldin Salohitdinov*
Musahhih *Orifjon Madvaliyev*

Bosishga 13.05.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasi. Kegli 14 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 18,14. Nashriyot-hisob tabog'i 18,45.
Adadi 108286 nusxa. Buyurtma № 22-147.

"O'zbekiston" MChJ nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

| № | O‘quvchining ismi va familiyasi | O‘quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbari-ning imzosi | Darslikning topshiril-gandagi holati | Sinf rahbari-ning imzosi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | | | | | | |
| 2. | | | | | | |
| 3. | | | | | | |
| 4. | | | | | | |
| 5. | | | | | | |
| 6. | | | | | | |

## Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olingan-da yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

| | |
|---|---|
| Yangi | Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati. |
| Yaxshi | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q. |
| Qoniqarli | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslik-ning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mir-langan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi. |

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE